




USAID
AMERIKA XALQIDAN



TRENERLAR VA O'QITUVCHILAR UCHUN NOGIRONLAR HUQUQLARIGA OID SEMINARLAR O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent – 2024-yil



USAID
AMERIKA XALQIDAN



Trenerlar va o'qituvchilar uchun nogironlar huquqlariga oid seminarlar o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma

Toshkent – 2024-yil

Sh.K. Ganibaeva, L.F. Is'hakova. Trenerlar va o'qituvchilar uchun nogironlar huquqlariga oid seminarlar o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma.

Taqrizchilar:

A.A.Matchanov - yuridik fanlar doktori (DsC), professor.

Sh.Rahmonov – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasi mudiri.

Ushbu qo'llanmada Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning maqsad va prinsiplari, nogironlar huquqlarini ta'minlash va ularni himoya qilish bo'yicha O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, nogironlarning asosiy huquqlarini amalga oshirishda ushbu Konvensiya qoidalarini mamlakat milliy qonunchiligiga tatbiq etishning asosiy mexanizmlari va vazifalarni tushunish bo'yicha asosiy uslubiy tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Bu uslubiy qo'llanmadagi materiallar Konvensiya qoidalarini "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni moddalari va boshqa qonun hujjatlari bilan solishtirish asosida tuzilgan.

Qo'llanmaning amaliy ahamiyati huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiquvchilarga Konvensiyada keltirilgan g'oyalar va tamoyillarni nogironlar ijtimoiy hayotining turli sohalariga tatbiq etishda yordam berishdan iborat.

Mazkur qo'llanma trenerlar va o'qituvchilarning ham nogironlar, ham ijtimoiy hayotning turli sohalarida ishlab, nogironlarga xizmat ko'ssatuvchi har xil ixtisoslikdagi mutaxassislarga seminarlar o'tishlari uchun mo'ljallangan.

Bu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi Ilmiy-uslubiy kengashning 2024-yil 16-yanvardagi 1-son bayonnomasini bilan ushbu markazning elektron platformasida chop etish uchun tavsiya etilgan.

Mazkur qo'llanma AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) orqali ko'rsatilgan Amerika xalqining yordami asosida yaratilgan. Qo'llanma mazmuni bo'yicha ma'suliyat Tetra Tech DPKga yuklatilgan va USAID yoki AQSH hukumati rasmiy nuqtayi nazarini aks ettirishi shart emas.

Qo'llanma USAIDning O'zbekistondagi Huquqiy islohotlar dasturi doirasida ishlab chiqildi va chop etildi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-BO'LIM. O'zbekiston Respublikasida nogironlarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya	7
1-mavzu. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya mazmuni, tamoyillari va unda qo'llanilgan asosiy tushunchalar.....	8
2-mavzu. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining o'ziga xos jihatlari	16
3-mavzu. O'zbekiston Respublikasida Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirish bo'yicha hisobotlari	26
2-BO'LIM. Nogironlarning asosiy huquqlari.....	32
4-mavzu. Nogironlarning shaxsiy huquqlari.....	33
5-mavzu. Nogironlar uchun yaqinlar va oilaning roli va ahamiyati	42
6-mavzu. Nogironlarning ta'lim olish, malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishi, mehnat va bandlik, yetarli turmush darajasi va ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini ta'minlash	48
7-mavzu. Nogironlarning siyosi, ijtimoiy va madaniy hayotda ishtirok etishi	64
Yakuniy nazorat uchun testlar.....	69
O'quv va me'yoriy-huquqiy materialllar	76
ILOVA	81

KIRISH

Hozirda har qanday jamiyat huquqiy hayotining asosiy qadriyati – bu yashash huquqi bo'lib, gap, ayniqsa, nogironlarning yashash huquqi haqida ketsa, juda folzarb hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, dunyoda taxminan 650 million kishi nogiron hisoblanadi, bu esa, dunyodagi barcha mamlakatlar aholisining qariyb 10 foizini tashkil qiladi. Ularning 80 foizdan ortig'i ishsiz bo'lsa-da, ularning 470 millionga yaqini mehnatga layoqatlari yoshda va odatiy ishlab chiqarish sharoitida yoki ixtisoslashgan korxonalarda ishlash imkoniyatiga egadir. Bunday holat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va fuqarolik sohalarda boshqalardan ajralib qolishi inson taraqqiyoti konsepsiyasini kelgusida amalga oshirish uchun to'siq bo'lib qolayotganidan dalolat beradi. Bu konsepsiya ko'ra esa, iqtisodiy o'sish aholining barcha toifalarini qamrab olishi, shuningdek hamma uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashi hamda taqdim etishi, u barqaror bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda 845,3 ming kishi nogironligi bor shaxslar sifatida ro'yxatga olingan bo'lib, bu umumiy aholining 2,3 foizini tashkil etadi.

O'zbekistonda nogironlikni baholash jarayoni hamon tibbiy xususiyatga ega bo'lib, nogironlar o'z huquqlarini amalga oshirishda turli imkoniyatlar belgilanuvchi bir nechta guruhga ajratiladi.

Ushbu uslubiy qo'llanmani ishlab chiqish zarurati bir qator holatlarga bog'liq bo'lib, ular qatoriga xalqaro huquqiy omillarni ham, 2021-yilda Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya ratifikatsiya qilinganidan keyin, xalqaro majburiyatlarni bajarish zaruriyatini keltirib chiqargan, mamlakatimizdagi ichki shart-sharoitlarni ham kiritish mumkin.

2008-yilda kuchga kirgan, BMTning inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalaridan biri hisoblanuvchi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya nogironlar huquqlarini ta'minlash, ularni himoya qilish va amalga oshirish uchun mutlaqo yangi standartlarni belgilab berdi. Ushbu xalqaro shartnomaga nogironlikka xayriyaga asoslangan tibbiy muammo sifatidagi qotib qolgan qarashlarni inson huquqlariga asoslangan yondashuvga o'zgartiradi. Bu nafaqat xalqaro huquq, balki milliy qonunchilik va amaliyot uchun ham yangi vaziyatni yuzaga keltiradi. Shuning

uchun ham, bu vaziyat Konvensiya qoidalarini jiddiy tushunish, O'zbekiston uchun xalqaro majburiyatlarni to'g'ri shakllantirib olish, davlat xizmatchilari hamda konvensiyani amalga oshirishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar ushbu xalqaro shartnomada belgilangan barcha yangi g'oyalar, mexanizmlar va tartiblarning to'g'ri tushunilishini talab qiladi.

Konvensiyaning yangi jihat shundaki, unda nogironlar huquqlarini kafolatlash uchun u yoki bu davlatga bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishi shartligi ko'zda tutilgan.

Ushbu qo'llanmaning asosiy g'oyasi nogironlarning Konvensiyada mustahkamlangan ijtimoiy, inson huquqlari asosidagi yondashuvni bat afsil tushuntirib berishdir. Aynan ana shu yondashuv, pirovardida, Konvensiya me'yorlarining amalga oshirilishiga va ularning mamlakatda monitoring qilinishiga ta'sir qiladi.

Ushbu uslubiy qo'llanma qator ma'rifiy maqsadlarga ega. Xususan, trenerlar va o'qituvchilarning ham nogironlar, ham ijtimoiy hayotning turli sohalarida ishlab, nogironlarga xizmat ko'rsatuvchi xar xil ixtisoslikdagi mutaxassislar uchun Konvensiyaning mazmunini tushunishda uslubiy tavsiyalarni berish va ularni tushuntirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Konvensiyaning o'zida ham belgilangan vazifa – Konvensiya me'yorlarining mazmuni haqidagi xabardorlikni oshirish vazifasi bu qo'llanmaning amaliy maqsadidir.

Bundan tashqari, uning oldiga juda muhim vazifa – Konvensiya qoidalarini amalga oshirish masalasi ham qonunchilikda, ham real hayotda qanday hal etilishi haqida tasavvur hosil qilish vazifasi qo'yildi. Shuning uchun o'qituvchi yoki trener Konvensiyaning asosiy g'oyalari va qoidalarini ham, nogironlar huquqlarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik tartib-taomillarini ham yaxshi biliishi kerakligi ko'zda tutiladi. O'zbekiston Konstitutsiyasida huquqiy-ijtimoiy davlat tashkil etilishining e'lon qilinishi mamlakat oldiga o'zining ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosatini mustahkamlash va chuqurlashtirish vazifasini qo'ydi va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish bu siyosatning ajralmas qismidir. Qo'llanmaning amaliy ahamiyati huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga va

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiquvchilarga Konvensiyada keltirilgan g'oyalar va tamoyillarni nogironlar hayotiga tatbiq etishda yordam berishdan iborat.

Mazkur qo'llanma nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlovchi davlat organlari va tashkilotlari (ta'lif tizimi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari) vakillari, advokatlar, sudyalar, nogironlarning o'zlari va ularning tashkilotlari, OAV vakillari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari uchun foydali bo'ladi.

Nogironlarning huquqlari bo'yicha ushbu uslubiy qo'llanmaning ishlab chiqilishi va uning Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazining o'quv platformasiga joylashtirilishini Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensianing "Ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar" deb nomlanuvchi, nogironlar va ularning huquqlariga bag'ishlangan tarbiyaviy-tanishtiruv dasturlarini ilgari surishni nazarda tutgan 8-moddasining ijrosi sifatida baholash mumkin.

Tuzilmaviy jihatdan bu qo'llanma ikkita bo'limda alohida mavzularga ajratilgan. Har bir mavzu Konvensiya va milliy qonunchilikning alohida qoidalari bo'yicha tavsiyalar va tushuntirishlarni o'z ichiga olgan uslubiy va asosiy qismidan iborat. Bundan tashqari, seminarda muhokama qilinadigan aniq savollar, foydalanilgan adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ro'yxati keltirilgan.

Bu qo'llanma 20 ishtirokchidan iborat nisbatan kichik guruuhlar uchun mo'ljallangan interfaol trening mashg'ulotlarini o'tkazish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lib, bunday mashg'ulotlar odatda slaydli prezentatsiyalar va guruh muhokamalari hamda ishtirokchilar o'rtaida ma'lumot almashuvlari asosida tashkil etiladi.

Mazkur uslubiy qo'llanma, birinchi navbatda, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tizimi bilan tanish bo'lgan o'qituvchi va murabbiylarni tayyorlashga mo'ljallangan. U foydalanuvchilarning inson huquqlari standartlari, atamalari va mexanizmlari bo'yicha ma'lum darajada ma'lumotlarga ega bo'lishini ko'zda tutadi.

Undan foydalanish qulay bo'lishi uchun qo'llanmaning ilova qismida Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensianing o'zbekcha matni ham keltirilgan.



1-BO'LIM

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
NOGIRONLARNING HUQUQLARINI
TA'MINLASH VA HIMOYA QILISH
BO'YICHA DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY
YO'NALISHLARI HAMDA NOGIRONLAR
HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

1-MAVZU

NOGIRONLAR HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA MAZMUNI, TAMOYILLARI VA UNDA QO'LLANILGAN ASOSIY TUSHUNCHALAR



MAVZUNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Ushbu darsning **maqsadi** – advokatlar, ijtimoiy ta'minot, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat sohalari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari kabi huquqni amalda qollovchi keng doiradagi mutaxassislarda, shuningdek, nogironlarning o'zlarida ham Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning asosiy mazmunini to'g'ri tushunishni shakllantirishdan iborat.

Seminarning o'z oldiga qo'ygan **vazifalari**:

- Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyada mustahkamlangan asosiy g'oyalar, tamoyillar va atamalar (tushunchalar) haqida bilim va tasavvurlarni shakllantirish;
- nogironlar huquqlarini himoya qilishning xayriya yondashuvi emas, balki inson huquqlari yondashuviga asoslangan zamonaviy konsepsiyasini anglash;
- O'zbekiston Respublikasining mazkur Konvensiya qoidalaridan kelib chiquvchi majburiyatlarini tushunish.



SEMINAR MAZMUNI

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ahamiyati va asosiy mazmuni quyidagi dalillarga asoslanadi:

1. Konvensiyaning maqsadi "nogironlarning insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish, himoya qilish hamda to'la va keng amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek ularga xos qadr-qimmatni hurmat qilishni rag'batlantirish," deb belgilangan. Aslida, bu davlat majburiyatlarining bir necha darajalari ro'yxatidir. Masalan, "himoya" nogironlarning huquqlarini tan oluvchi tartib-qoidalar va qonunlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi hamda huquqbuzarlik holatlarida himoya vositalarini o'z ichiga olgan va huquqlarni ta'minlovchi vositalarni (xizmatlarning jismoniy va axborot jihatdan ommabopligini ta'minlash) o'z ichiga oladi.
2. Nazariy jihatdan, nogironlar barcha inson huquqlariga da'vo qilishlari mumkin, ammo amalda ular hali ham deyarli barcha odamlar odatdagidek qabul qiladigan ko'plab muhim huquqlar va asosiy erkinliklardan mahrumligicha qolmoqdalar. Konvensiyaning asosiy maqsadi nogironlarning ham barcha insonlar kabi huquqlardan foydalanishini, nafaqat bir xil imkoniyatlardan bahramand bo'ladi, balki jamiyat rivojiga ham hissa qo'sha oladigan fuqarolar sifatida to'laqonli hayot kechirishini ta'minlashdan iborat.
3. Konvensiya kiritadigan asosiy tushuncha "foydalanish imkoniyati" bo'lib, u nogironlar mustaqil turmush kechirish va turmushning barcha jabhalarida har taraflama ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlariga qaratilgan. Konvensiyada "foydalanish imkoniyati" deganda, davlat tomonidan nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda jismoniy muhitdan, transportdan, axborot va aloqadan shaharlarda ham, qishloq joylarida ham foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun ko'riladigan choralar tushuniladi. Bu choralar foydalanish imkoniyatiga xalaqit beradigan to'siqlarni aniqlash va bartaraf etishni qamrab

oladi. Konvensianing 9-moddasi “Foydalanish imkoniyati” deb nomlanib, unda nogironlar uchun tegishli obyektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashning barcha jihatlari, sohalari va vositalari batafsil bayon etilgan. Ushbu modda Konvensiya tomonidan kafolatlangan barcha huquq va erkinliklar bilan bog'liq bo'lib, u nogironlarning turli huquqlarini kafolatlash usullari va vositalarini ohib beradi. Masalan, aholi uchun ochiq yoki taqdim etiladigan obyektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ko'zda tutadigan minimal standartlar va tayanch mezonlarni ishlab chiqish, amalga kiritish va ularga rioya etilishini nazorat qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, xizmatlar taklif etadigan xususiy korxonalar nogironlar foydalanish imkoniyatlarini uchun barcha jihatlarni hisobga olishlarini ta'minlash, shuningdek, yordamchilar va vositachilarning turli xizmatlarini rivojlantirish va taqdim etishlari zarurligi ko'rsatib o'tiladi. 9-moddada keltirilgan “foydalanish imkoniyati” tushunchasining ahamiyati, bu tushuncha Konvensianing 3-moddasida mustahkamlangan tamoyillardan biri ekanligi bilan belgilanadi.

Foydalanish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha ushbu chora-tadbirlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning barchasini baravariga amalga oshirib bo'lmaydi, chunki bunday tadbirlar uzoq muddatli istiqbolda davlatning moliyaviy, tashkiliy va huquqiy jihatdan jiddiy sa'y-harakatlarini talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, nogironlarga nisbatan munosabat madaniyatini o'zgartirish va bu munosabatlar asosidagi tegishli infratuzilmani yaratish talab etiladi. Davlat organlari, biznes tuzilmalari va jamiyatdan esa, nogironlar huquqlarini ta'minlash uchun vaqt, moddiy resurslar, amaliy ishlar va sa'y-harakatlar talab etiladi.

4. “Nogironlik” va “nogiron” tushunchalari orqali Konvensiya o'zining ijtimoiy konsepsiyasini ohib beradi. Bu konsepsiyaning mohiyati shundaki, nogironlik inson sog'lig'ining buzilishi hamda nogironning jamiyat hayotida ishtirok etishiga xalaqit beruvchi va imkon bermaydigan tashqi to'siqlar o'rtaсидаги о'заро та'sир натијасидир (salbiy munosabat yoki xizmatlar ko'rsatiladigan binolarga kirish imkon yo'qligi).

Dunyoda nogironlikka turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning ba'zilari dunyoning ayrim mintaqalarida boshqalardan ko'ra muhimroq ahamiyatga ega.

Nogironlikka nisbatan xayriya yondashuvida nogironlarga xayrli ishlar yoki ijtimoiy yordamning passiv obyekti sifatida qaraladi.

Unga tibbiy yondashuvda esa, insонning jismonan cheklagnan jihatlariga juda katta e'tibor berilib, bu tengsizlik manbai sifatida taqdim etiladi.

Nogironlikka ijtimoiy yondashuv doirasida nogironlik ijtimoiy hodisa bo'lib, unga jamiyatdagi shaxsiy omillar va atrof-muhit omillarining o'zaro ta'siri natijasi sifatida qaraladi.

Nogironlikka inson huquqlari himoyasi jihatdan yondashuv ijtimoiy yondashuvga asoslanib, unga ko'ra, nogironlar muayyan huquq egasi sifatida tan olinadi hamda davlat va boshqa subyektlardan ularni hurmat qilish talab etiladi. Nogironlarning huquqlarini amalga oshirish yo'lida jamiyatdagi mavjud to'siqlarga esa, kamsitish sifatida qaraladi. Nogironlikka inson huquqlari himoyasi jihatdan yondashuv rahm-shafqatga emas, balki qadr-qimmat va erkinlikka asoslanadi. U keng doiradagi shaxslar, shu jumladan nogironlarning ongli ravishda ishtirok etishiga yordam beruvchi muhitni yaratish orqali o'zaro hurmat, mehr-oqibat va inklyuzivlikni saqlash yo'llarini topishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvda nogironlarga xayriya tadbirlarining passiv obyekti sifatida munosabatda bo'lismga emas, balki ularni jamiyat hayotida, ta'lim sohasida, ish joyida, siyosiy va madaniy hayotda ishtirok etishi va odil sudlovdan to'siqsiz foydalanish orqali o'z huquqlarini himoya qilishlari uchun o'zlar mustaqil harakat qilishlarini o'rgatishga asosiy e'tibor qaratiladi.

5. Nogironlikning zamonaviy konsepsiyasida nogironlik ma'lum bir shaxsning holati va uning atrof-muhit omillari o'rtaSIDagi o'zaro ta'siri sifatida baholanadi. Bu omillar xilma-xil bo'lib, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:
 - yashash muhiti omillari (hududning qulayligi, ma'lumotlar-vebsaytlardan to'siqsiz foydalanish imkoniyati, hujjatlarning qulay shaklda ekanligi (masalan, Brayl alifbosida));

- huquqiy omillar (qonunlarda kamsitishdan himoyalanganlik, nogironlarning huquqlari va imkoniyatlarini qonunchilikda tartibga solish yoki qonunlarda huquqiy kamchiliklarning mavjudligi);
 - ijtimoiy-iqtisodiy omillar (shahar va qishloqdagi imkoniyatlar, aholining boy va kambag'al guruhlari, nogironlikni ijobiy yoki salbiy qabul qilish);
 - xizmat ko'stash omili (hamma uchun keng qamrovli xizmatlar yoki sog'liqni saqlash, ta'limdagi tabaqalanish, xizmatlarning arzon yoki qimmatligi va hk.).
6. Konvensiya nogironlikka tibbiy muammo sifatida e'tibor qaratmaydi, u har bir inson o'z huquqlarini amalga oshirishida bevosita ishtirok etishi va ulardan foydalanishi uchun ijtimoiy, inson huquqlari konsepsiyasini ilgari suradi. Konvensiya milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qo'llaniladigan ta'riflar nogironlikning ijtimoiy modelini aks ettirish vazifasini qo'yishi barobarida, nogironligi bo'lgan shaxs duch keladigan muammo uning tug'ma nogironligi toifasi emas, balki mavjud to'siqlar nuqtai nazaridan baholanadi. Konvensiya nogironlikni bunday shaxslarning jismoniy cheklangan jihatni bilan ta'riflanuvchi tushunchalardan qochadi. Konvensiyaning yangicha g'oyani ilgari surishi va ahamiyati ham ana shundadir.
7. Konvensiyaning inson huquqlari konsepsiysi, shuningdek, Konvensiyaning barcha qoidalari mazmunan aks etuvchi va uning har bir me'yorini tushunishga yordam beruvchi sakkizta prinsipning mazmunini ochib beradi. Konvensiyaning 3-moddasida uning barcha boshqa qoidalari asos bo'uvchi umumiy prinsiplar belgilab qo'yilgan. Bu prinsiplar quyidagilardan iborat:
- insonga xos bo'lgan qadr-qimmatni, uning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan mustaqil tanlovi erkinligini hamda mustaqilligini hurmat qilish;
 - jamiyatga to'la va samarali jalb etish va qo'shish;
 - imkoniyatlarning tengligi;

- nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish;
- kamsitmaslik;
- to'siqsiz foydalanish;
- erkaklar va ayollarning tengligi.

Bu tamoyillar mantiqan bir-biridan kelib chiqadi. Nogironning jamiyat hayotiga to'liq qo'shilishi va unda ishtorok etishini ta'minlash uchun unga boshqa odamlar kabi teng imkoniyatlarni ta'minlash kerak, bu faqat obyektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

8. Konvensiya milliy hamda xalqaro nazorat va monitoring mexanizmlarini nazarda tutadi. Shu maqsadda Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita tuzilgan bo'lib, u davlat tomonidan Konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo'yicha qilinayotgan chora-tadbirlar bo'yicha davriy hisobotlar taqdim etadi.
9. Konvensiya nogironlarning huquqlarini tushuntiradi va davlatga ushbu huquqlarni ta'minlash majburiyatlarini belgilaydi. Davlat va jamiyat nogironlarning jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarni olib tashlashi lozim. Umumiy majburiyatlarga asoslangan holda, davlat harakatlarining ma'lum bir algoritmi aniqlanishi va ular quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin:
 - konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo'yicha nazorat qiluvchi tashkilotlar va muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar hamda davlat organlari tizimidagi boshqa institatlarni aniqlash;
 - qabul qilinayotgan qonunlar va byudjetlarning konvensiya qoidalariga muvofiqligini ta'minlash;
 - nogironlik huquqlari bo'yicha qonunlar va institatlarning to'liq moliyalashtirilishini ta'minlash;
 - turli xizmatlarni nogironlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ko'rsatish;
 - Konvensiya haqidagi xabardorlikni oshirish;
 - nogironlar bilan ishslash uchun mutaxassislar tayyorlash;

- nogironlarning huquqlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va so'rovlar o'tkazish;
 - barcha turdagи xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi texnologiyalarni tadqiq etish va ishlab chiqish;
 - huquqlar buzilgan hollarda samarali himoya vositalarini taqdim etish.
- 10.** Konvensiya inson huquqlari to'g'risidagi shartnoma va taraqqiyot hujjati deb ham ataladi. Konvensianing ko'pgina qoidalari samarali rivojlanish strategiyalari va siyosatlariga bog'liq bo'lgan tovarlar va xizmatlardan osonroq foydalanish imkoniyati ta'minlasnishini talab qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlanish dasturlari nogironlarni qamrab olishini hamda ular bundan foydalana olishlarini ta'minlashi zarur hisoblanadi (Konvensianing 32-moddasi, "a" bandi). Bu ikki tomonlama yondashuvni talab qiladi. Bularning birinchisi, nogironlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish hamda nogironlarning ularda ishtirok etish bo'lsa, ikkinchisi, milliy va hududiy darajada amalga oshirilayotgan barcha loyihalarda ularning huquq va fikrlarini hisobga olishdir.

XX asrning 80-yillaridan boshlab nogironlar muammosiga jahon hamjamiyati e'tibor qarata boshladi. Bu vaqt ichida ko'plab mamlakatlar nogironlarni faqat rahm-shafqat va mehribonlik qilinishi kerak bo'lgan odamlar deb hisoblash fikridan voz kechdilar. Konvensiya o'z g'oyalari va prinsiplari orqali jismoniy va aqliy nuqsonlar to'g'risidagi jamiyatda shakllanib, qotib qolgan qarashlarni o'zgartirishga yordam beradi va jamiyat, kim bo'lishidan qat'i nazar, barcha insonlarning o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerakligini tan olishini ta'minlaydi.



MUHOKAMA UCHUN QUYIDAGI SAVOLLAR BERILADI:

- ❖ Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning tarixiy va xalqaro huquqiy ahamiyati nimadan iborat?
- ❖ Nogironlar inson huquqlaridan foydalana olishlari uchun davlar qanday choralar ko'rishi zarur?
- ❖ Bu Konvensiya boshqa hujjatlarda keltirilmagan yangi inson huquqlarini shakllantiradimi?
- ❖ Nogironlarga nisbatan ijtimoiy, inson huquqlariga asoslangan yondashuvning mohiyati nimada va bu Konvensiyadagi "nogironlik" va "nogiron" tushunchalarida qanday aks ettirilgan?
- ❖ Konvensiya qanday asosiy tamoyillarni e'lon qiladi va ular uning qoidalarini tushunish va qo'llashga qanday ta'sir qiladi?
- ❖ Konvensiya O'zbekiston oldiga xalqaro majburiyatlarni bajarish bo'yicha qanday vazifalarni qo'yan va ularning yangiligi nimada?

2-MAVZU

NOGIRONLAR HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA QOIDALARINI AMALGA OSHIRISH VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING HUQUQLARINI TA'MINLASH VA HIMOYA QILISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI



MAVZUNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Maqsad – O'zbekiston Respublikasida nogironlarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining mazmun-mohiyatini, shuningdek, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning asosiy qoidalarini O'zbekistondagi qonun hujjaligiga tatbiq etish holatini va amaliyotini olib berishdan iborat.

Seminarning o'z oldiga qo'ygan **vazifalari**:

- nogironlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida bilim va tasavvurlarni shakllantirish;
- Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning asosiy qoidalarini tatbiq qilishda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari faoliyati, shuningdek, fuqarolik jamiyatni tuzilmasini tahlil qilishi;

- Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning asosiy qoidalarini O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotiga tatbiq etishning asosiy muammolarini tushunish.



SEMINAR MAZMUNI

1. Mamlakatimiz taraqqiyotining strategik ustuvor yo'nalishlari qatorida ijtimoiy yo'naltirilgan jamiyatni shakllantirish vazifasi ham borligiga e'tibor qaratish zarur. Darhaqiqat, har qanday xalqning kuchi yoshi yoki sog'lig'i tufayli mustaqil ravishda ishlab, daromad olishga layoqati yo'qlarga g'amxo'rlik qilish qobiliyatidadir. Shu sababli, davlat ijtimoiy siyosatining vazifasi davlat, ish beruvchi va xodim o'rtasida javobgarlik taqsimoti amal qilinadigan moliyaviy barqaror, iqtisodiy jihatdan samarali, ijtimoiyadolatli uch darajali ijtimoiy ta'minot tizimini yaratishdir. Ijtimoiy himoya tizimi eng yaxshi rivojlangan mamlakatlarning jahon amaliyoti aynan shunday siyosatni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida nogironlikning belgilanishi bilan bog'liq yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi davlat siyosati va milliy qonunchilik, asosan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darjasini oshib borishiga mos ravishda nogironligi bo'lgan shaxslarning asosiy turmush sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan.

Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, asosan, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarni himoya qilish, nogironlikning muayyan holatlari, masalan, baxtsiz hodisalar, xastalik va genetik kasalliklar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan. Xalqaro standartlar esa, nogironlik muammosini yanada og'irlashtirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, institutsional va siyosiy to'siqlarni olib tashlash zarurligini targ'ib qiladi va shu orqali nogironlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda ishtiroy etish qobiliyatini cheklaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2021-yilda "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi davlat oldiga nafaqat yangi xalqaro majburiyatlarni belgilab berdi, balki mamlakatda nogironlar huquqlarini ta'minlash bo'yicha yangicha yondashuv va yechimlar joriy qilinishini ham talab qildi. Bu, birinchi navbatda, 2020-yili qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.10.2022-yil 12-dekabrdagi PQ-390-son "Nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatlariga tegishli tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 27-fevraldagi PQ-74-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qator qarorlari bilan bog'liq.

"Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunning ikkinchi bobu davlat organlari tizimini tartibga solishga bag'ishlangan bo'lib, nogironlar huquqlarini ta'minlashda ularning vakolatlari taqsimoti belgilab qo'yilgan. Qonun va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-dekabrdagi 769-son qarori darajasida Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengashning maqomi va faoliyati yo'nalishlari belgilab qo'yilgan bo'lib, u kengash nogironlarning huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda, nogironlarning jamoat birlashmalari ishtirokida, barcha davlat organlari va tashkilotlari ishtirokini muvofiqlashtiradi.

3. Ta'kidlash joizki, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston-2030" strategiyasi kabi dasturiy hujjatlarda nogironlar huquqlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani joriy qilish 'yicha aniq ko'rsatkichlar keltirib o'tilgan.

Xususan, bu hujjatlarda, nogironligi bo'lgan muhtoj shaxslarning sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlash darajasini 100 foizga yetkazish, nogironligi bo'lgan shaxslarni munosib

ish bilan ta'minlash orqali ularning bandligini 2 barobarga oshirish, nogironligi bo'lgan muhtoj shaxslarni rehabilitatsiya xizmatlari bilan to'liq qamrab olish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mavjud infratuzilma holatini baholash tizimini joriy qilib, qulay va maqbul muhitni yaratish, "To'siqsiz turizm" dasturi doirasida har bir viloyatdan yiliga 1 000 nafardan nogironligi bo'lgan shaxslarning Samarcand, Buxoro va Xivaga bepul sayohatlarini tashkil qilish kabi chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan.

4. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:
 - nogironligi bo'lgan shaxslarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ko'rish;
 - nogironligi bo'lgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
 - nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta'minlash;
 - nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish;
 - nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalari bo'yicha jamiyatda ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
 - nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;
 - davlat organlarining va ular mansabdar shaxslarining nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
 - nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'lim (maktabgacha, maktabdan tashqari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim) olish imkoniyatini ta'minlash;

- davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtaida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish.
5. Ta'kidlash joizki, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyoti oldiga qonunchiligidan ilgari ma'lum bo'lмаган bir qator konseptual vazifalarni qo'ydi (inklyuziv ta'lim, obyektlar va xizmatlarda to'liq foydalanish imkoniyati, nogironlarni jamiyat va davlat hayotiga jalb qilish, nogironlarning huquq subyekti sifatida e'tirof etilishi, nogironlik asosida kamsitish tushunchasini kengaytirish).
6. Bunda nogironlar huquqlariga oid konseptual hujjatlarda xalqaro standartlarga rioya qilish zarurati ko'p jihatdan hisobga olingan bo'lsa-da, qonunosti hujjatlar ularga to'liq mos kelmayotganini ham esdan chiqarmaslik kerak. Nogironlarning huquqlarini himoya qilishga oid ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar eskirgan va ularning ayrim joylari bir-biriga zid, nogironlar huquqlari to'g'risidagi tartib-qoidalar tizimlashtirilmagan.

Nogironlarning huquq va erkinliklariga rioya qiliinishini kafolatlovchi me'yirlarni amalga oshirishda muammolar mavjud. Qonunchilik talablari har doim ham bir qator sabablarga ko'ra bajarilmaydi, jumladan: qonunlar ijrosi sababli qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlarining yo'qligi, aniq va puxta amalga oshirish mexanizmlar hamda yagona nazorat organining mavjud emasligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, davlat xizmatchilarining Konvensiya tartib-qoidalarini yaxshi bilmasligi.

Mustaqil yashash uchun ko'maklashish markazlari, maslahat dasturlari, erta aralashuv xizmatlari, reabilitatsiya xizmatlari, dam olish paytida nogironlarni odatda ularga qarovchi shaxslar tomonidan vaqtincha parvarishlash, mehnat bozoridagi kasbiy tayyorgarlik, boshqaruv va vositachilik, maxsus transport vositalari hamda qaror qabul qilishda yordam xizmatlari kabilarning yo'lga qo'yilmaganligi nogironligi bor shaxslarga tanlash imkonini qoldirmaydi, oqibatida ular institutsional xizmatlarga bog'liq bo'lib qoladilar.

7. Nogironlar o'z huquqlarini himoya qilishlari uchun odil sudlovdan erkin foydalana olishlari zarur. Fuqaroning odil sudlov foydalanish degani, ular: (1) hech qanday de-yure (qonunchilikda ko'zda tutulgan) va/ yoki de-fakto (yozilmagan urf-odatlarda ko'zda tutilgan) to'siqlarsiz o'zining nizoli vaziyatlarini hal qilishda sudsizdan foydalanish; (2) ularning huquqlari buzilgan holatda, adolatli sud jarayoni va tegishli himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga tayanishlari mumkin. Konvensianing 13-moddasiga muvofiq, nogironlarga yuridik jarayonning barcha bosqichlarida, jumladan surishtirish bosqichlarida ularning ishtirokini yengillashtiruvchi protsessual kafolatlar taqdim qilinishi lozim.
8. Amaldagi qonunchilik nogironligi bo'lgan shaxslarning muomala layoqatini ularning aqliy qobiliyatlari asosida cheklashga imkon berishiga e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston adliya tizimi vakillari (sudyalar, advokatlar, prokurorlar yoki huquqi muhofaza qiluvchi organlar kabilar) nogironligi bo'lgan shaxslarning muomala layoqati nuqtayi nazaridan teng huquqlari haqida ma'lumotga ega emaslar.
Hozirda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslari o'z muomala layoqatini amalga oshirishda kerak bo'lishi mumkin bo'lgan, qaror qabul qilishga ko'maklashish xizmati yo'q, vasiylik va homiylik institutlari bundan mustasno.
9. Nogironlar odil sudlov tizimida ularning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini cheklovchi to'siqlarga duch keladilar.
Asosiy to'siqlarga quyidagilar kiradi:
 - adliya tizimi binolariga kirish, shuningdek, ularning axborot va aloqa imkoniyatlari cheklanganligi;
 - aksariyat nogironlar uchun maxsus joylashtirish yoki boshqa sud xarajatlari uchun arzon bo'lmagan to'lovlari;
 - nogironligi bo'lgan shaxslar sud-huquq tizimida ishlashlari uchun qulay shart-sharoitlarning ta'minlanmaganligi;
 - nogironligi bo'lgan shaxslarning odil sudlovdan to'siqsiz foydalanishini ta'minlash uchun adliya tizimi xodimlarining yetarli darajada tayyor emasligi.

Barcha jamoat binolari uchun to'siqsiz kirish imkoniyatini ta'minlash talab qilinadigan bo'lsa-da, mamlakatimiz sudlarining deyarli hech biri bunday imkoniyatlar bilan ta'minlangan binolarga ega emas.

Imo-ishora tili yoki audio-video yozuvlar (maxsus yozib olish uskunalari talab etiladi) kabi yordamchi vositalar talab qilinishi mumkin bo'lgan nogironlar suddan oldin bunday vositalarni suddan so'rashlari va xarajatlarni o'zлari qopplashlari zarur.

O'zbekiston sud tizimida nogironlar kamdan-kam holatlarda yuqori lavozimlarda faoliyat ko'rsatadilar.

- 10.** O'zbekiston davlat organlari tizimida bir qator vazirlik va idoralar mavjud bo'lib, ularga nogironligi bo'lgan shaxslarning u yoki bu muammolarini hal etish vakolatlari yuklatilgan. Bir qator davlat idoralari nogironlar huquqlarini himoya qilish siyosatini muvofiqlashtiradi va amalga oshiradi. Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash (NIIK) nogironlar huquqlarini ta'minlash siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda u tegishli vazirliklar, davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni tashkilotlari, shu jumladan, nogironlar tashkiloti vakillaridan iborat bo'ladi. Qonunchilikka muvofiq, NIIK konvensiyani amalga oshirishni muvofiqlashtirish uchun mas'ul organ hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi organdir. Agentlik tizimida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qancha muassasalar faoliyat yuritadi, jumladan: "Muruvvat" va "Saxovat" internat-uylari, Nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda viloyat rehabilitatsiya qilish markazlari, Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi (IHMM) 2021-yil iyun oyidan boshlab O'zbekiston tomonidan NHK ratifikatsiya qilinganidan keyingi birinchi Milliy harakatlar rejasini tayyorlash jarayoniga rahbarlik qiladi, shuningdek, NHK ijrosi bo'yicha muntazam hisobot berish uchun mas'ul hisoblanadi.

- 11.** Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada O'zbekistonda ijtimoiy davlatning shakllanishi to'g'risidagi bayonet, shuningdek, mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironlar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasi ostida ekanligi haqidagi bandlar ushbu sohani yagona yondashuv asosida isloh qilishni taqozo etdi.

Shu tarzda, nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va ularning ta'lif olishlariga ko'maklashish bo'yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilmoqda. 2023-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu dasturiy hujjat nogironlarni ijtimoiy himoya qilishning butun sohasini isloh qiladi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligining nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishslash tizimini takomillashtirish yo'nalishidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- nogironlikni baholash va aniqlashning tibbiy modelidan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlash;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni yuqori sifatli protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsianing texnik vositalari bilan ta'minlash;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya va abilitatsiya qilish sohasini rivojlantirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish;
- jamiyatda ijtimoiy moslashuv va integratsiya uchun sharoit yaratish, nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligini ta'minlashga ko'maklashish, inklyuzivilikni ta'minlanishini muvofiqlashtirish hamda ularga qulay muhit shakllantirilganligini nazorat qilish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jamiyat ongida sog'lom fikrni shakllantirish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularga uy sharoitida ijtimoiy xizmatlarini tashkil qilish;
 - nogironligi bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan internat, ta'lim muassasalari va reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish.
- 12.** Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini shakllantirishda:
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash yuzasidan takliflar kiritish;
 - nogironligi bo'lgan shaxslarga tegishli ijtimoiy xizmat turlarini taqdim etish samaradorligini baholashda ishtirot etish;
 - nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga takliflar kiritish;
 - Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash ishida va majlislarida ishtirot etish;
 - vakolatli davlat organlari bilan birgalikda sport, ma'rifiy va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish yo'li bilan ishtirot etishga haqlidir.
- 13.** Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlariga daxldor qarorlarni tayyorlash hamda qabul qilishda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari va ularning vakolatli vakillari bilan hamkorlik qiladi.



MUHOKAMA UCHUN QUYIDAGI SAVOLLAR BERILADI:

- ❖ Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.
- ❖ Nogironlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda qanday organlar va tashkilotlar ishtirok etadi?
- ❖ Nogironlarning odil sudlovdan foydalanishlari cheklanganligini nimani anglatadi?
- ❖ Nogironlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda nogironlarning jamoat birlashmalari faoliyatining o'ziga xosligi nimada?
- ❖ O'zbekistonda 2021-yilda Nogironlar huquqlari to'grisidagi konvensiya ratifikatsiya qilingandan so'ng uni amalga oshirishda asosiy muammolar nimalardan iborat?

3-MAVZU

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA NOGIRONLAR HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYANI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA HISOBOTLARI



MAVZUNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Ushbu darsning **maqsadi** mamlakat Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaga beradigan hisobotining mazmuni va tartiblari bo'yicha tushuncha berish (Konvensiyaning 34-39-moddalari).

Seminarning o'z oldiga qo'yan **vazifalari**:

- Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya davlatning konvensiya organiga hisobot berish vazifalarini qanday shakllantirishini aniqlash;
- Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita maqomi va uning vakolatlarini aniqlash;
- Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaga O'zbekiston Respublikasining milliy ma'rzasini tayyorlash va uni ko'rib chiqish tartibi bo'yicha tasavvurga ega bo'lish;
- nogironlar tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalarining Konvensiya qoidalarini bajarish bo'yicha muqobil hisobot tayyorlashda ishtirok etishi;
- Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaga O'zbekistonning birinchi milliy ma'rzasini (2023-yil) tayyorlash xususiyatlari va uning mazmunini o'rganish.



SEMINAR MAZMUNI

1. Avvalo, Konvensianing 35-moddasiga muvofiq Qo'mitaga hisobot taqdim etish tartibiga e'tibor qaratish lozim: ratifikatsiya qilgandan so'ng ishtirok etuvchi davlat ikki yil mobaynida keng qamrovli ma'ruzani, so'ngra navbatdagi ma'ruzalarni to'rt yilda kamida bir marta taqdim etadi.
2. Konvensianing 4-moddasi mazmuniga e'tibor qaratish kerak, unda mamlakatlar bajarishi talab etiladigan umumi majburiyatlar ro'yxati shakllantirilgan bo'lib, faqatgina qonunchilik va ma'muriy choralarning qabul qilinishi yetarli emasligi ta'kidlangan. Umumi majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati nogironligi bo'lgan shaxslarning o'ziga xos ehtiyojlari uchun mahsulotlar, xizmatlar, asbob-uskunalar va dizaynlarni ishlab chiqish, mobil qurilmalar va yordamchi texnologiyalarni osonlashtiruvchi yangi texnologiyalar va AKTdan foydalanishdir. Umumi majburiyatlar qarorlar qabul qilishda nogironlar va ularning tashkilotlari bilan yaqindan maslahatlashish, barcha dasturlarda nogironlarning huquqlarini hisobga olish va targ'ib qilish, har qanday shaxs yoki tashkilot tomonidan nogironlik asosida kamsitishni bartaraf etishni o'z ichiga oladi.
3. Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita turli qit'alar va tamaddunlar vakili bo'lgan 18 nafar saylangan a'zolardan iborat bo'lib, ularning tarkibida nogironlarligi bo'lgan mutaxassislar ham borligini ham aytib o'tish joiz. Qo'mitaning eng muhim vakolati ishtirok etuvchi davlatlarning ma'ruzalarini ko'rib chiqishdir. Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaning yana bir vakolati – Umumi tartibdagi izohlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu hujjat konvensiya qoidalarining o'ziga xos talqini bo'lib, qo'shimcha savollarga javob berish va ma'ruzalarni tayyorlashda undan faol tarzda foydalaniladi.

4. Mustaqil shartnomaviy kuzatuv organi (Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita) tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi ishtirokchi-davlatlarning Konvensianing bajarilishi to'g'risidagi milliy ma'ruzalari hamda fuqarolik jamiyatining shu mazmundagi hisobotlarini ko'rib chiqish bilan birga nogironlarning huquqlarini amalga oshirish jarayonlarini mustahkamlash maqsadida ishtirokchi-davlatlar bilan konstruktiv muloqot o'tkazishdan iborat. Shuningdek, Fakultativ protokolga (O'zbekiston ratifikatsiya qilmagan) muvofiq, Qo'mita Konvensianing ehtimoliy jiddiy buzilishi va tizimli qoidabuzarliklari bo'yicha xabarnomalarni olishi va ular yuzasidan tekshiruvlar o'tkazishi mumkin.
5. Milliy ma'ruzani ishlab chiqishda nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'ssatuvchi va ular bilan ishlovchi davlat organlari ma'lumotlarini yig'ishga asoslanish va bunday ma'ruzalarni ishlab chiqish tartiblariga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu bosqichda hamma narsa, xususan, hisobotni qaysi organ tayyorlashi, u yoki bu inson huquqlarining bajarilishi bo'yicha nogironlarning o'zlarining fikrlaridan qanday foydalanilishi, vakolatli davlat organlariga Konvensianing muayyan moddalari bo'yicha savollar, oldindan to'planishi va turli asoslar bo'yicha (jins, yosh, nogironlik turi va boshqalar) tasniflanishi kerak bo'lgan statistik ma'lumotlardan foydalanish masalalari muhim bo'lib, bu Konvensiyada mustahkamlangan.
6. Mamlakat ma'rzasining mazmuni, shakli va hajmi taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi va bir xilligini ta'minlash Ma'ruzalarni taqdim qilish bo'yicha ko'ssatmalar bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatda Konvensianing bandlari va qoidalari bo'yicha mamlakatlar javob berishi kerak bo'lgan aniq savollar keltiriladi. Muqobil hisobotlarni taqdim etish nogironlarning o'zları yoki boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.
7. O'zbekistonning Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaga milliy ma'ruba shaklida hisobot taqdim etishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- hukumatni inson huquqlari va nogironlik masalalari bo'yicha qonunchilik, siyosat va milliy dasturlarni to'liq va har tomonlama ko'rib chiqishga undashi;
- nogironlar huquqlarini amalga oshirish ustidan davlat tomonidan davriy nazoratni amalga oshirish imkonini berishi;
- hukumatga o'z natijalarini baholashi mumkin bo'lgan ustuvorliklar va ko'satkichlarni belgilash imkonini beradi.

Konvensiya qoidalarini amalga oshirish uchun yuqori sifatli qonunlar va me'yoriy hujjalarni ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, Milliy ma'ruzani ishlab chiqish uchun yuqori sifatli statistik ma'lumotlar talab qilinadi. Shu bois, O'zbekiston nomidan, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tegishli tadqiqotlar o'tkazish orqali nogironlarning ahvoli va ularning huquqlarini amalga oshirishda duch keladigan to'siqlarni chuqurroq tushunishga yordam beruvchi ma'lumotlarni to'playdi.

8. Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita darajasida milliy hisobotlarni ko'rib chiqish shartli ravishda ikki bosqicha amalga oshiriladi:
- birinchi – ma'ruzani olgandan so'ng, Qo'mitada – ekspertlar hisobot matni bilan ishlaydi;
 - ikkinchi – Qo'mita yig'ilishida bevosita ko'rib chiqish tartibi orqali, interfaol rejimda o'tuvchi bu yig'ilishda mamlakat vakillari ishtirok etadi va ular qo'mita a'zolarining savollariga javob beradilar.

Ushbu tartibning yakuni sifatida, hisobot beruvchi davlatga Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaning yakuniy kuzatuvlari va tavsiyalari taqdim etiladi va ular BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi (IHOKB) veb-saytida (<http://www.ohchr.org/>) ham e'lon qilinadi. Bu o'sha davlatning Qo'mita bilan hamkorligini aks ettiruvchi rasmiy hujjat bo'lib, o'tgan to'rt yil davomida Konvensiya qoidalarini amalga oshirishda mamlakatning erishgan yutuqlari va muammoli masalalari, shuningdek, ushbu masalalarni hal etish bo'yicha Qo'mitaning tavsiyalari aks ettirilgan bo'ladi. Keyingi ma'ruza 4 yildan keyin bo'lishi va u ana shu yakuniy tavsiyalarni amalga oshirishga asoslanishini esdan chiqarmaslik lozim.

Mamlakatning keyingi harakatlariga ham to'xtalib o'tish kerak, chunki ular ham Konvensiyaning 36-moddasida mustahkamlangan, xususan, mamlakat Yakuniy izohlarni e'lon qilishi, fuqarolik jamiyatni vakillari bilan keng maslahatlashuvlar o'tkazishi, ushbu izohlardagi choralarni ko'rish bo'yicha milliy harakatlar rejasini ishlab chiqishi va unda izohlarda keltirilgan chorani ko'rish bo'yicha aniq chora-tadbirlar, muddatlar hamda ijrochi davlat organlari belgilab qo'yiladi. 12 oydan so'ng mamlakat yakuniy izohlar doirasida amalga oshirilgan harakatlar to'g'risida birinchi xabarnomani taqdim etadi.

O'zbekistonda Konvensiya organlarining yakuniy izohlarini ijo etish bo'yicha milliy harakatlar rejalarini qabul qilish amaliyoti mavjud bo'lib, ularda davlat organlari tomonidan ma'lum vaqt davomida (keyingi hisobotgacha) Konvensiya organining yakuniy izohlarini amalga oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab qo'yiladi.

9. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining veb-saytida (<http://pravacheloveka.uz> va <https://www.ohchr.org/ru>) O'zbekiston Respublikasining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya bandlarini bajarishi bo'yicha Milliy ma'rurasini ko'rib chiqish to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinadi. Ushbu materiallar bizning Milliy ma'ruza hamda Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaning O'zbekiston hisoboti bo'yicha yakuniy mulohazalarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Milliy ma'ruzasi va Qo'mitaning yakuniy mulohazalarini asosida 2021-yilda Konvensiya ratifikatsiya qilinganidan keyin O'zbekiston Respublikasining Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita bilan hamkorligi, shuningdek, xalqaro majburiyatlarini bajarishda erishilgan yutuqlar haqida baho berishimiz mumkin.


Xalqaro hamkorlikning, jumladan, rivojlanish sohasidagi hamkorlikning, unda belgilangan huquqlarni amalga oshirish uchun muhimligini ta'kidlagan holda, Konvensiya ushbu masalaga alohida modda ajratadi. Bunda u inson huquqlari bo'yicha oldingi shartnomalar amaliyotiga asoslanadi, unda xalqaro hamkorlik odatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni izchil amalga oshirish bilan bog'liq moddalarda tilga olinadi. 32-moddada batafsil tushuntirilgan choralarda xalqaro hamkorlik Konvensiyani qanday rivojlantirishi mumkinligini ko'rish mumkin (masalan, ilmiy tadqiqotlar sohasidagi

hamkorlik, bu hamkorlik nogironlarni ham qamrab olishi va ularga imkoniyatlardan to'siqsiz foydalanish ta'minlanishini ko'zda tutadi). E'tibor bering, bu yerda xalqaro hamkorlik haqidagi modda va boshqa moddalar o'zaro bog'liq va bir-birini to'dirmoqda. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro hamkorlik, jumladan, rivojlanish sohasidagi hamkorlik huquqlarni amalga oshirish va Konvensiyani yanada samaraliroq amalga oshirishga ko'maklashish yo'llaridan biridir.



MUHOKAMA UCHUN QUYIDAGI SAVOLLAR BERILADI:

- ❖ Konvensiya davlatning uni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarini qanday belgilaydi (Konvensiyaning 4-moddasi)?
- ❖ Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita qanday vakolatlarga ega?
- ❖ Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaga beradigan davriy hisoboti qanday funksiyalarni bajaradi?
- ❖ Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaga beriladigan muqobil ma'ruzalaning vazifalari va ahamiyati nimada?
- ❖ Keyingi harakatlar deganda nimani tushunasiz va mamlakat Yakuniy izohlarni olgandan so'ng nimalar qilishi zarur?
- ❖ 2021-yil iyun oyida Konvensiya ratifikatsiya qilinganidan so'ng O'zbekistonning Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaga hisobot berish borasidagi nima ishlar qildi?



2-BO'LIM

**NOGIRONLARNING
ASOSIY HUQUQLARI**

4-MAVZU

NOGIRONLARNING SHAXSIY HUQUQLARI



MAVZUNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mashg'ulotning maqsadi – advokatlar, ijtimoiy ta'minot, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, shuningdek, nogironlarning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, shuningdek, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun tamoyillari va g'oyalariga muvofiq nogironlar shaxsiy huquqlarining asosiy mazmuni haqidagi tushunchalarni shakllantirishdir.

Seminarning o'z oldiga qo'ygan **vazifalari**:

- nogironlarga nisbatan shaxsiy daxlsizlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlarini tushuntirib berish;
- mustaqil turmush tarzi va shaxsiy harakatlanishni ta'minlash mexanizmlarini tushunish;
- axborotdan foydalanish imkoniyati va so'z erkinligi nima ekanligini bilish va ularni tushuntirish.



SEMINAR MAZMUNI

1. Ushbu mavzu Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 14, 15, 16, 19, 20, 21, 22-moddalari bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi, ularda:
 - nogironlarga nisbatan shaxsiy daxlsizlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari;
 - mustaqil turmush tarzi va shaxsiy harakatlanishni ta'minlash mexanizmlari;
 - axborotdan foydalanish imkoniyati va so'z erkinligi masalalari ochib beriladi.
2. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyada "qadr-qimmat» atamasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha boshqa konvensiyalariga qaraganda ko'proq uchraydi.
3. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning shaxsiy huquqlarini hurmat qilishlari, himoya qilishlari va ta'minlashlari shart. Qonunchilikda u yoki bu darajada nogironlarni kamsitish holatini yaratishi mumkin bo'lgan ko'plab misollar bo'lishi mumkin. Huquqiy subyekt bo'la olish huquqini buzuvchi vasiylik to'g'risidagi qonunlar kabi sohalarda; majburiy muassasaga joylashtirish va majburiy davolashni qonuniylashtiruvchi ruhiy salomatlik to'g'risidagi qonunlar, ko'pincha kamsituvchi xarakterga ega bo'ladi; uy-joylar narxlarining ommabop emasligi va institutsionalizatsiya siyosati; o'gil bolalar va qizlarni alohida o'qitishni mustahkamlovchi qonunchilik va siyosat; nogironlarni saylov huquqidan mahrum qiluvchi saylov qonunlari bunga misol bo'la oladi.
4. Inklyuziv tenglik – bu Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyada ishlab chiqilgan yangi tenglik konsepsiysi. Tenglikka mohiyatan yondashishga asoslanib, bu tushuncha quyidagilar asosida tenglik tushunchasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi: a) adolatli qayta taqsimlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy adolatsizlikni tuzatish vositasi sifatida; b) stigma, stereotiplar, noto'g'ri qarashlar va zo'ravonlikka

qarshi kurashish, odamlarning qadr-qimmatini himoya qilish va umumjihatlilik vositasi sifatida; c) odamlarning ijtimoiy guruhlarning a'zolari va butun insoniyatning jamiyatga integratsiyalashuvi orqali ijtimoiy tabiatini tasdiqlovchi ishtirokni kengaytirish vositasi sifatida; d) inson qadr-qimmati borasida farqlanish uchun o'rin qoldiruvchi vosita sifatida.

"Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunda ikkita modda – 18-modda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning tengligini ta'minlash va kansitilishiga yo'l qo'ymaslik" va 19-modda "Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi" – nogironlarning shaxsiy huquqlariga bag'ishlangan. Aslida, ikkala modda ham nogironlarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish kafolatlarini ifodalandi. Shuningdek, Konvensianing shaxsiy huquqlarga bo'lgan yondashuvini ham ko'rib chiqaylik. Konvensianing 17-moddasida shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish nogironligi bo'lgan shaxsning jismoniy va ruhiy daxlsizligini boshqalar bilan teng ravishda hurmat qilish huquqini o'z ichiga oladi.

Konvensianing 19-moddasida mustaqil turmush tarzi va mahalliy hamjamiyatga jalb qilinish tartiblari belgilab qo'yilgan bo'lib, bu barcha nogironlarning odatiy yashash joylarida, boshqalar bilan bir xil tanlash huquqiga ega bo'lgan holda teng huquqliligin e'tirof etishni, shuningdek, nogironlarning bu huquqlarini to'liq amalga oshirishlariga ko'maklashish uchun samarali va tegishli chora-tadbirlarni qabul qilish hamda nogironlarning mahalliy hamjamiyatga to'liq jalb qilinishi va qo'shilishi zarurligini anglatadi. Bu huquq nogironlar hayotida qanchalik muhimligini tushunish lozim. Aynan shuning uchun ham, Konvensiya mustaqil hayotga erishish yo'llarini quyidagicha belgilaydi:

- ular boshqa odamlar bilan teng ravishda o'z yashash joyini va qayerda kim bilan yashashni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi;
- ular uyida, yashash joyida va mahalliy hamjamiyat asosida boshqa yordamchi xizmatlardan, shu jumladan mahalliy hamjamiyatda hayotini saqlab turish va hamjamiyatga kirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy yordamdan foydalanishga ega bo'lishi, shuningdek yakkalab qo'yishga yoki mahalliy jamiyatdan chiqarib yuborishga yo'l qo'yilmasligi;

- jamiyat a'zolariga umumiy foydalanishga mo'ljallangan xizmatlar va obyektlardan nogironlar ham teng darajada foydalanishi.

Konvensianing "Shaxsiy harakatlanish" deb nomlanuvchi 20-moddasi mazmuni alohida ahamiyatga ega. Ushbu moddaning mazmuniga ko'ra, davlat nogironlarning maksimal darajada mustaqil harakatlanishini ta'minlash choralarini ko'radi, bunga quyidagi yo'llar bilan erishish mumkin:

- nogironlar o'zi tanlaydigan vositada, tanlagen vaqtida va maqbul narxda shaxsiy harakat qilishlariga yordam berish;
- nogironlarning harakatlanishini yengillashtiradigan sifatli vositalar, qurilmalar, assistiv texnologiyalar hamda yordamchilar va vositachilarning xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini, shu jumladan bu narsalarni maqbul narxlarda taqdim qilish orqali yengillashtirish;
- nogironlarni va ular bilan ish olib boradigan mutaxassis kadrlarni harakatlanish ko'nikmalariga o'qitish;
- harakatlanishni yengillashtiradigan vositalar, qurilmalar assistiv texnologiyalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalarni nogironlarning harakatlanishi barcha jihatlarini hisobga olishga da'vat etish.

Nogironllar harakatlanishining barcha sanab o'tilgan usullari ularning shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun sharoit va kafolatlar yaratadi.

5. Odil sudlovdan samarali foydalanishni ta'minlash uchun huquqiy tartib-taomillar keng doiradagi tomonlarning ishtirokiga to'sqinlik qilmasligi va shaffof bo'lishi zarur. Keng doirada ishtirokni ta'minlash bo'yicha faoliyat quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: a) ma'lumotlarni aniq va tushunarli shaklda taqdim etish; b) turli xil muloqot shakllarini tan olish va ulardan foydalanish; c) jarayonning barcha bosqichlarida jismoniy foydalanish imkoniyatini ta'minlash; d) da'vegarning moliyaviy imkoniyatlarini va da'veoning asosliligini baholashning me'yoriy mezonlarini hisobga olgan holda yuridik yordamga muhtoj bo'lgan taqdirda moliyaviy yordam ko'rsatish.

6. Huquq layoqati huquqi – bu Konvensiyada mustahkamlangan deyarli barcha boshqa huquqlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan tayanch huquqdir. Huquq layoqatini inkor etish orqali kamsitish nogiron shaxsnинг ahvoli, funksional qobiliyati yoki uning qarorlarining kutilgan natijasi kabi turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkin.
7. Qonun oldida tenglik inson huquqlarini himoya qilishning asosiy umumiylidir va insonning boshqa huquqlarini amalga oshirish uchun zarur hisoblanadi. NHKda tavsiflangan shaxsiy huquqlar nogironlarning fuqarolik huquqlarining mazmunini tavsiflamaydi, balki nogironlar odatda ushbu huquqlardan mahrum bo'lgan sohalarga qaratilgan. Konvensiyada nogironlar uchun qo'shimcha huquqlar belgilanmagan; u shaxsiy huquqlarini ta'minlash uchun davlat hisobga olishi kerak bo'lgan o'ziga xos elementlar va kafolatlarga to'xtalib o'tadi.
8. Konvensiyada insonga xos bo'lgan qadr-qimmatni, uning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan mustaqil tanlovi erkinligini hamda mustaqilligini hurmat qilish, kamsitmaslik, jamiyatga to'la va samarali jalb etish va qo'shish, nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish, imkoniyatlarning tengligi, to'siqsiz foydalanish, erkaklar va ayollarning tengligi hamda nogiron bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish va nogiron bolalarning o'z shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish kabi tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan.
9. Huquqiy subyekt sifatida e'tirof etilish fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan foydalanishning ajralmas elementidir. Bu, ayniqsa, nogironlar uchun ularning sog'lig'i, ta'limi va ishi bo'yicha muhim qarorlar qabul qilishlari kerak bo'lganda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Nogironlarning huquq layoqatini rad etish aksar hollarda ko'plab asosiy huquqlar, jumladan, saylov huquqi, turmush qurish va oila qurish huquqi, reproduktiv huquqlar, ota-onalik huquqlari, intim munosabatlarga rozilik berish huquqi, tibbiy davolanish va erkinlik huquqidan mahrum bo'lishiga olib kelgan.

- 10.** Konvensiyada ikki xil tushuncha – huquq layoqati va aqliy muomala layoqatini aniq tarzda ajratib ko'satadi.

Huquq layoqati deganda huquq va majburiyatlarga ega bo'lish (huquqiy maqomi) hamda ushbu huquq va majburiyatlarni amalga oshirish (muomala layoqati) tushuniladi. Bu layoqat jamiyatda amalda ishtirok etish imkonini beruvchi asosiy element sanaladi.

Aqliy muomala layoqati deganda insonning qaror qabul qilish qobiliyati tushuniladi, bu, albatta, har bir kishiga qarab o'zgaradi va ko'plab omillarga, jumladan, atrof-muhit va ijtimoiy omillarga, hatto shaxsning o'zidan kelib chiqib, farqlanishi mumkin.

- 11.** NHKning 9-moddasida aholi uchun ochiq yoki taqdim etiladigan boshqa obyektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga xalaqit beradigan to'siqlarni aniqlash va bartaraf etishni talab qiladi. Axborot va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatining yo'qligi va xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratilmaganligi amalda nogironligi bo'lgan ayrim shaxslarning huquq layoqatini amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli davlat huquq layoqatini amalga oshirishning barcha tartib-qoidalari, shuningdek, bu bilan bog'liq barcha axborot va kommunikatsiya vositalaridan to'liq foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Davlat shaxsiy huquqlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun o'z qonunlari va amaliyotlarini qayta ko'rib chiqishi lozim.

- 12.** Konvensiya XXI asrda inson huquqlari sohasida AKTdan foydalanish imkoniyati masalasiga taalluqli bandlar kiritilgan ilk xalqaro shartnoma hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz foydalanish huquqlari foydalanish imkoniyati standartlarini qat'iy amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Mavjud obyektlar, tovarlar va xizmatlardan foydalanish uchun mo'ljallangan yoki jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan to'siqlarni bosqichma-bosqich olib tashlash kerak bo'ladi.

- 13.** NHKning 9 va 21-moddalari axborot va aloqa masalalariga bag'ishlangan. 21-moddaga ko'ra, davlatlar "nogironlar fikr va e'tiqodlarini erkin ifoda etish huquqini, shu jumladan muomalaning barcha shakllaridan o'z tanlovi bo'yicha foydalangan holda axborot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini ta'minlash uchun

barcha zarur choralarni ko'radi". Shuningdek, u moddada axborot va kommunikatsiyalardan foydalanish imkoniyatiga amalda qanday erishish mumkinligi batafsil bayon etilgan. Bu modda davlatga "nogironlarni foydalanish imkoniyati bo'lgan shaklda va nogironlik turli shakllarini hisobga olgan texnologiyalardan foydalanib.... keng ommaga moljallangan axborot bilan ta'minlash" majburiyatini yuklaydi. Bundan tashqari, u "rasmiy muomalada ishora tili, Brayl alifbosi, muomalani kuchaytiradigan va muqobil vositalaridan hamda nogironlarning tanlovi bo'yicha muomalaning boshqa foydalanish imkoniyati bo'lgan barcha vositalari, usullari va shakllaridan foydalanishlariga yordam ko'rsatishni" nazarda tutadi. U keng ommaga, shu jumladan Internet orqali xizmat ko'rsatadigan xususiy korxonalarini nogironlar uchun foydalanish imkoniyati bo'lgan va yaroqli shakllardagi axborot va xizmatlar taqdim etishga, ommaviy axborot vositalarini nogironlar axborotdan, shu jumladan Internet orqali taqdim etadigan xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashga da'vat etadi. NHKning 21-moddasi, shuningdek, davlatdan, NHKning 24, 27, 29 va 30-moddalariga muvofiq, imo-ishora tillaridan foydalanishni e'tirof etish va rag'batlantirishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangi texnologiyalar nogironlarning jamiyat hayotida to'liq va teng ishtirok etishini rag'batlantirish uchun qo'llanilishi mumkin, ammo ular faqat ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan tarzda ishlab chiqilgan va tayyorlangan bo'lsa. Yangi investitsiya, tadqiqot va ishlab chiqarish yangi to'siqlarni yaratishga emas, balki tengsizliklarni bartaraf etishga ko'maklashishi zarur. Shu sababli, davlat va xususiy sektor oldida nogironlar uchun dastlab foydalanishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini loyihalashtirish, rivojlantirish, ishlab chiqarish va tarqatishni rag'batlantirish vazifasi turibdi.

Konvensiyaning 21-moddasi qoidalarini va "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunning "Axborotdan foydalanish" nomli 26-moddasi tartiblarini taqqoslab quyidagilarga e'tibor qaratamiz. Unda davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot olish huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi hamda nogironligi

bo'lgan shaxslarni keng omma uchun mo'ljallangan, qulay formatlardagi va nogironlikning turli shakllari hisobga olingan texnologiyalardan foydalangan holda axborot bilan ta'minlashi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, davlat odamlar o'rtasidagi muloqot vositalari sifatida imo-ishora tilidan, muloqotning boshqa muqobil shakllaridan foydalanilishiga ko'maklashishi ham ko'rsatib o'tilgan.

Unda davlat kommunikatsiyaning muqobil shakllaridan (Brayl harflaridan va ovozli shakllardan) foydalangan holda badiiy adabiyotlar, maktab darsliklari, boshqa didaktik materiallar va o'qitish vositalari nasr etilishini ta'minlashi belgilangan.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlar o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirilgan axborot bilan qulay tarzda tanishish hamda xizmatlardan foydalanish uchun nogironligi bo'lgan shaxslarga qo'shimcha imkoniyatlarni yaratishi shart.

Qolaversa, davlat organlari va tashkilotlar axborot-kommunikatsiya uskunalarining hamda axborot ta'minotining davlat xaridlariga davlat buyurtmasini amalga oshirishda nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha toifalari uchun qulaylik mezonlariga rioya etilishini hisobga olishi kerak.

Davlat organlari va tashkilotlar, zarur bo'lgan taqdirda, mazkur davlat organining yoki tashkilotning vakili va eshitishida nuqsonlari mavjud nogironligi bo'lgan shaxs o'rtasidagi muloqotni ta'minlash uchun imo-ishora tili tarjimonini shartnoma bo'yicha yollashi ham belgilangan.

Qonunning mazkur qoidalarini tahlil qilish davlat tomonidan Konvensiyaning 21-moddasi qoidalarini qonunchilik darajasida amalga oshirganligini aytishga imkon beradi, biroq xalqaro majburiyatlarni amalda bajarish bo'yicha hali ko'p ishlar qilinishi zarur.

- 14.** NHKda mustahkamlangan barcha shaxsiy huquqlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada keltirilgan barcha g'oya va tamoyillarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidiga to'liq tatbiq etish bo'yicha hali qilinadigan ishlar talaygina.



MUHOKAMA UCHUN QUYIDAGI SAVOLLAR BERILADI:

- ❖ NHKda mustahkamlangan shaxsiy huquqlarning o'ziga xos jihatlari nimada?
- ❖ NHK va Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunda nogironlarning shaxsiy huquqlarini solishtiring.
- ❖ O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va NHKda keltirilgan "huquqiy subyekt sifatida e'tirof etilish" tushunchasiga baho bering. Bu tushuncha nogironlarga nisbatan qo'llaniladigan yondashuvlardagi farqlarni izohlang.
- ❖ Axborotdan foydalanish imkoniyati va so'z erkinligi mexanizmlariga NHK qanday tushuntirish beradi?
- ❖ Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 19 va 20-moddalari nogironlarning mustaqil turmush tarzi va shaxsiy harakatlanishni ta'minlashning qanday mexanizmlarini taklif qiladi?
- ❖ Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonun nogironlarning shaxsiy huquqlarini qanday ta'riflaydi (18, 19 va 21-moddalar)?

5-MAVZU

NOGIRONLAR UCHUN YAQINLAR VA OILANING ROLI VA AHAMIYATI



MAVZUNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mashg'ulotning **maqsadi** – NHK 23-moddasining ma'nosi va mazmuni, shuningdek, uning qoidalari milliy qonunchilikka qay darajada tatbiq etilganligi va amalga oshirilishi to'g'risida to'g'ri tushunchani shakllantirishdi.

Seminarning o'z oldiga qo'ygan **vazifalari**:

- nogironlarning shaxsiy daxlsizlik, oila va oilaviy muhitga bo'lgan asosiy huquqlarini tushunish;
- nikoh, oila, otalik, onalik va shaxsiy munosabatlarga oid barcha masalalarda nogironlar kamsitishlarga barham berish malakasini egallash;
- nogironlari bor oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha barcha turdag'i xizmatlarni bilish.



SEMINAR MAZMUNI

1. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini va uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalarning o'sishi va farovonligi uchun tabiiy muhit ekanligi asosiy g'oya hisoblanadi. Oila nogironlar uchun eng muhim ijtimoiy himoya va manba hisoblanishi haqidagi tushunchani tinglovchiga yetkazish

zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida ta'kidlanganidek, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bolaning oilada bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, bola oiladan ajralgan hollarda uni tezroq oilaga qaytarish bo'yicha zarur choralarni ko'radi.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligidagi asoslanadi.

2. NHKning 23-moddasining mazmunini talqin qilish shuni ko'rsatadiki, davlatga nikoh, oila, otalik, onalik va shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq barcha masalalarda nogironlarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish uchun, boshqalar bilan teng asosda samarali va tegishli choralarni ko'rish majburiyati yuklanadi.

Konvensianing ushbu moddasi oila, nikoh, otalik, onalik va shaxsiy munosabatlarni ta'minlash va qo'llab-quvvatlashning juda keng doirasini qamrab oladi.

3. Milliy qonunchilik ma'lum darajada NHK g'oyalari va qoidalarini tatbiq qiladi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi va "Vasiylik ha homiylik to'g'risida"gi qonunlarga NHK tartiblari joriy qilindi.

4. Qonunning 19, 20, 22-moddalari bevosita oila va oilaviy muhitga bo'lgan huquq bilan bog'liq bo'lib, ularda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

- shaxsiy hayot daxlsizligi;
- nogiron bolalarning oila va oilaviy muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash;
- nogiron bolalarni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish sonini qisqartirish, qarindoshlarini oilaviy sharoitga jalb qilish orqali ularni muqobil parvarish bilan ta'minlash;
- nogironlar va oilalarning qulay narxlarda uy-joy sotib olishlari uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni ta'minlash.

5. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bolalarning oilaviy muhitga bo'lgan huquqlari kafolatlari belgilangan. Agar bolaning manfaatlari uchun zarur bo'lmasa, bolani ota-onasidan ajratib qo'ymaslik zarur. Ushbu moddada davlatning nogironligi bo'lgan bolalarni hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga moddiy yordam, maslahat yordami va boshqa yordam ko'rsatadi hamda ularni qo'llab-quvvatlash majburiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Agar bola o'z oilaviy muhitidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo'lsa yoki uning manfaatlariga ko'ra bunday muhitda qololmasa, bola alohida himoya va yordam olish huquqiga ega. Bunday holda, Qonun bolani joylashtirishning muqobil shakllarini nazarda tutadi va bunday bolaga bunday muqobil g'amxo'rlik ko'rsatilishi kerak. Qonun hujjalari muvofiq, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning shakllari quyidagilardir: vasiylik va homiylikni belgilash; bolani farzandlikka olish; oilaga tarbiyaga olish (patronat); ixtisoslashtirilgan tarbiya, davolash muassasalariga, ijtimoiy himoya muassasalariga joylashtirish.

Bundan tashqari, bolaning ham, ota-onasining ham nogironligi tufayli bolani ota-onasidan ajratib bo'lmaydi. Faqat oila birligini saqlab qolish uchun oilaga zarur yordam bolani o'z holiga qo'yish ehtimoli va xavfini yoki bolaning xavfsizligiga tahdidni bartaraf etish uchun yetarli darajada samarali bo'lмаган hollarda bolani oiladan ajratish masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.

6. Davlat organlari bolaning oilada bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarни ko'rishi, bola oiladan ajralgan hollarda esa, uni imkon qadar tezroq oilaga qaytarishi shart. Shuningdek, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolaga g'amxo'rlik qilishning ustuvor huquqi ushbu funksiyani bajarishga qodir bo'lgan qarindoshlariga beriladi.
7. Nogironligi bo'lgan bolalarni hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalar davlat

tomonidan moddiy yordam, maslahat yordami va boshqa yordam olish huquqiga ega.

NHKning 23-moddasi qoidalari ishtorik etuvchi davlatlarning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada belgilangan majburiyatlarini kengaytiradi.

8. Bolani ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish oxirgi chora hisoblanadi va bolani oilaga joylashtirish imkonni bo'limgan hollardagina bunga ruxsat etiladi.
9. Afsuski, vasiylik va homiylik organlari ko'pincha nogiron bolani, hatto ota-onalardan biri yoki boshqa yaqin qarindoshlari bo'lsa ham, muassasaga joylashtirish amaliyotini qo'llaydi. Albatta, bu nogiron bolaning manfaatlariiga javob bermaydi va uning oilaviy muhitda yashash, qarindoshlari bilan muloqot qilish huquqini buzadi.

Ota-onalar yoki nogiron bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o'z qobiliyatlari va moddiy resurslari doirasida nogiron bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yashash sharoitlarini ta'minlash uchun asosiy javobgardirlar. Albatta, oila qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolganda duch keladigan muammolar mavjud.

Nogiron a'zosi bo'lgan oilalarga yordam ko'rsatish masalalari "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunning "Uy-joyga bo'lgan huquq" deb nomlanuvchi 22-moddasida ham tartibga solingen. Xususan, ushbu moddaga muvofiq, davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga uy-joy qurilishi bo'yicha davlat dasturlaridan va maxsus dasturlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga va o'z tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilalarga uy-joyni qulay narxlar bo'yicha olish uchun zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Uy-joyga yoki uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslarni hisobga olish mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari tomonidan uy-joy olishga yoki uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish ro'yxatlarini shakllantirish chog'ida nogironligi bo'lgan

shaxslar va o'z tarkibida nogironligi bo'lgan shaxs bor oilalar alohida ro'yxatga kiritiladi.

10. Ota-onalarga va nogiron bolalarni tarbiyalayotgan boshqa shaxslarga ushbu huquqni amalga oshirishda yordam berish choralarini ko'rish, ota-onalar yoki nogiron bolalar uchun moddiy javobgar bo'lgan boshqa shaxslar tomonidan bolaning ta'minoti tiklanishini yo'lga qo'yish uchun barcha zarur choralarni ko'rish zarur.
11. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining NHKdagi oilaning o'rni va ahamiyati to'g'risidagi qoidalariga muvofiqligini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, Konvensiyada amalga oshirilishi ko'zda tutilgan inson huquqlari yondashuvi hamda milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan tibbiy-ijtimoiy yondashuv o'rtasida katta tafovut mavjud ekan.

Nogironlar uchun oilaning roli va ahamiyatiga oid Konvensiya qoidalarini tatbiq qilishdagi eng muhim muammolardan biri shundaki, milliy qonunchilik tartib-qoidalarida u yoki bu huquqlar yoxud ijtimoiy himoya elementlari e'lon qilinsa-da, aslida ular hamma joyda ham amalga oshirilmayapti (oilaviy uy-joy olish masalalari).

12. Qolaversa, nogiron oilalarni ijtimoiy himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish asosan qonunosti hujjatlari darajasida tartibga solingan va rivojlanayotganini alohida ko'rsatib o'tish lozim.



MUHOKAMA UCHUN QUYIDAGI SAVOLLAR BERILADI:

- ❖ Nogironlarning shaxsiy daxlsizlik, oila va oilaviy muhitga bo'lgan asosiy huquqlarini tushuntiring.
- ❖ Nikoh, oila, ota-onalik va shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq barcha masalalarda nogironlarni kamsitish nimadan iborat?
- ❖ O'zbekiston Respublikasining qaysi qonunlari NHKning 23-moddasini qo'llaydi va qay darajada tatbiq etadi?
- ❖ NHKning 23-moddasida davlatga nogiron bolalarga nisbatan qanday majburiyatlar yuklanadi?

6-MAVZU

NOGIRONLARNING TA'LIM OЛИSH, MALAKALI TIBBIY XIZMAT KO'RSATILISHI, MEHNAT VA BANDLIK, YETARLI TURMUSH DARAJASI VA IJTIMOIY HIMOYAGA BO'LGАН HUQUQLARINI TA'MINLASH



MAVZUNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mavzuning **maqsadi** nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ta'lif olish, salomatlik, mehnat, bandlik, shuningdek yetarli turmush darajasiga bo'lgan huquqlarining mazmunini ochib berishdan iborat.

Seminarning o'z oldiga qo'ygan **vazifalari**:

- NHKda mustahkamlab qo'yilgan nogironlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari bilan tanishish;
- milliy qonunchilikda nogironlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- milliy qonunchilikda, jumladan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunda nogironlarning ijtimoiy-iqtisodiy, xususan turar joy (22-modda), ta'lif (38-modda), mehnat va bandlik (42 va 43-moddalar) huquqlarining implementatsiya qilish darajasini aniqlash.



SEMINAR MAZMUNI

1. Nogironlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari NHKda juda bat afsil belgilab qo'yilgan bo'lib, amalga oshirishda o'ziga xosliklarga ega va ta'lif olish, salomatlik, mehnat, bandlik, shuningdek yetarli tur mush darajasiga bo'lgan huquqlarni o'z ichiga oladi.
2. Abilitatsiya va reabilitatsiya. Qayd etish o'rinniki, milliy qonunchilik, o'z holicha, nogironlar insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlaridan foydalanishlari mumkinligini kafolatlamaydi. Aynan davlat Konvensiya qoidalarini nogironlar hayotiga haqiqatan ta'sir ko'rsatuvchi amaliy chora-tadbirlarga aylantirish uchun samarali siyosatni va dasturlarni ishlab chiqishi lozim. Bittagina huquqda rad etish butun umr davomida boshqa huquqlar va imkoniyatlardan ham mahrumlikka sabab bo'lishi mumkin.
3. Konvensianing abilitatsiya va reabilitatsiya (26-modda), foydalanish imkoniyati (9-modda), ta'lif olish (24-modda), mehnat va bandlik (27-modda) o'rtasidagi bog'liqlik kuzatiladigan beshta asosiy qoidasiga e'tibor berish zarur.
Chunonchi, abilitatsiya va reabilitatsiya (26-modda) jarayonning birlamchi, juda muhim bosiqichlari bo'lib, ularning vazifasi nogironlarga mustaqil hayot tarzini kechirish (19-modda), jamiyatda harakat qila olishlari (20-modda) va o'z salohiyatini to'liq yuzaga chiqarishda yordam berishdan iboratdir. Ushbu jarayon natijasida ular faoliyat yuritish, asosli qarorlar qabul qilish, jamiyatga hissa qo'shish va Konvensiyada hamda milliy qonunchilikda ko'rsatilgan barcha boshqa huquqlarni amalga oshirish imkonini beruvchi kerakli ko'nikmalarни о'злаштирадилар ва ривожлантирадилар.
4. **Mamlakat hukumati va milliy qonunchilik tomonidan qabul qilingan davlat dasturlarida allaqachon eskirgan nogironlikni belgilashning tibbiy modelidan umume'tirof etilgan ijtimoiy modeliga bosqichma-**

bosqich o'tish ko'zda tutilgan. Xususan, "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonunning qoidalariга muvofiq, shaxsni nogiron deb e'tirof etish asoslari, shuningdek uning abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi bo'yicha choralar belgilangan.

5. E'tirof etish jarayoni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan, 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni esa – pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshirilishiga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun shaxsni tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tish uchun davlat tibbiyot muassasasiga yo'llash zarur. Bunda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tibbiyot tashkilotlari nogironligi belgilari aniq ko'rinish turgan shaxslarni klinik-funksional ma'lumotlarni olishga doir qo'shimcha tekshiruvlarni o'tkazmasdan turib, tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborishga haqli.

Agar shaxs sog'lig'ining holatiga ko'ra tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga borish imkoniga ega bo'lmasa va bu tibbiyot muassasasining xulosasi bilan tasdiqlansa, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza uuda yoki shaxs davolanishda bo'lgan statsionarda o'tkazilishi mumkin.

Tekshiruvdan o'tkazish tibbiy hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kalendar kundan kechiktirmay tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan o'tkaziladi. Tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tish uchun yuborilgan shaxs tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan tekshiruvdan o'tkazish kuni to'g'risida tibbiy hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran ikki ish kuni ichida xabardor qilinadi. Nogironlik aniqlangan taqdirda, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan hujjatlar qabul qilingan sanadan boshlab fuqaro nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etiladi.

6. Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza natijalari bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan fuqaroga – nogironlik guruhi, uning belgilanish sababi va muddatlari, o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga esa qayta tekshiruvdan o'tish muddati bilan – "Nogironligi bo'lgan bolalar" toifasi belgilanadi.
7. Qonunda nogironligi bo'lgan shaxslar reabilitatsiyasi va abilitatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlar ham ko'zda tutilgan, bu borada davlat

nogironligi bo'lgan shaxslarning davlat muassasalarida tibbiy, ijtimoiy, kasbiy va jismoniy reabilitatsiyasi va abilitatsiyasini kafolatlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar reabilitatsiyasining bir necha turlari mavjud:

Tibbiy reabilitatsiya nogironligi bo'lgan shaxslar a'zolarining hamda organizmi tizimlarining buzilgan va (yoki) yo'qolgan funksiyalarini saqlab qolishga, qisman yoki to'liq tiklashga qaratilgan tibbiy xizmatlar majmuidir.

Ijtimoiy reabilitatsiya nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot faoliyati cheklanganligini yengib o'tishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ijtimoiy maqomini, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish, mustaqil yashash imkoniyatlarini tiklashga, shuningdek ularni jamiyatda oilaviy hayotning odatiy sharoitlariga qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Kasbiy reabilitatsiya nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirishga, kasbga o'qitishga va ishga joylashtirishga, shuningdek ularning boy berilgan kasbiy bilimlari, mahorati va ko'nikmalarini tiklashga qaratilgan bo'ladi.

Jismoniy reabilitatsiya nogironligi bo'lgan shaxslar organizmining buzilgan yoki vaqtincha yo'qolgan funksiyalarini hamda ularning ijtimoiy va kasbiy faoliyatga bo'lgan qobiliyatini jismoniy tarbiya va sport vositalari hamda usullaridan foydalangan holda tiklash (tuzatish va kompensatsiya qilish) choralaridan iboratdir.

Abilitatsiya – bu insonning jamiyatda faoliyat ko'rsatishiga yordam beradigan kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bu turdag'i dasturlar, qoidaga ko'ra, tug'ma nogiron bolalar uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Reabilitatsiya – nogironga, olingan nogironligi natijasida jamiyatda faoliyat ko'rsatishga qaytadan o'rGANISHI kerak bo'lgan katta odamlarga xos bo'lgan, yo'qotilgan qobiliyatlar va mahoratlarni qaytarishdir.

8. Abilitatsiya bo'yicha xizmatlar tibbiy-ijtimoiy, psixologik va pedagogik, shuningdek xavf guruhidagi bolalarga taqdim etiladigan boshqa korreksion xizmatlarni o'z ichiga oladi. Uch yoshgacha bo'lgan, tashqi aralashuv va zaruriy tibbiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik yoki boshqa

korreksion qo'llab-quvvatlash ko'rsatilmasa, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishda orqada qolishning yuqori ehtimoliga ega bolalar xavf guruhiga kiradi.

Abilitatsiya bo'yicha xizmatlar tibbiy-ijtimoiy tashkilotlar tomonidan, shuningdek tibbiy-ijtimoiy xizmatlar taqdim etishga ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladi, bunda nogironligi bo'lgan shaxslar reabilitatsiyasi va abilitatsiyasi nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturiga muvofiq tashkil etiladi, u tibbiy-ijtimoiy ekspertiza asosida ishlab chiqilgan, nogironligi bo'lgan shaxs uchun optimal bo'lgan reabilitatsiya chora-tadbirlari majmuuni o'zida aks ettiradi.

Majmua organizmning buzilgan yoki yo'qotilgan funksiyalarini, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxsning muayyan mehnat faoliyati turlarini bajarishga layoqatini tiklash, kompensatsiyalashga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, kasbiy va jismoniy reabilitatsiya chora-tadbirlarining muayyan turlarini o'z ichiga oladi.

Nogironligi bo'lgan shaxs uchun tibbiy-ijtimoiy ekspertiza o'tkazilgandan keyin 10 kun ichida tibbiy, ijtimoiy, ta'lif va kasbiy sohalar mutaxassislari o'tkazadigan ko'pprofilli baholashdan kelib chiqib, nogironligi bo'lgan shaxs reabilitatsiyasining yakka tartibdagi dasturi ishlab chiqiladi.

9. Nogironligi bo'lgan shaxs reabilitatsiyasining yakka tartibdagi dasturida belgilangan chora-tadbirlarni o'tkazishda nogironligi bo'lgan shaxs o'ziga nisbatan teng, hurmat bilan munosabatda bo'linishi; o'z huquqlari va imkoniyatlari, shuningdek reabilitatsiyadan o'tish xususiyati, sifati, shart-sharoitlari haqida to'liq hamda ishonchli axborot olish; nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari vakillarini reabilitatsiya o'tkazishning har qanday bosqichida jalb etish huquqiga ega.

Nogironligi bo'lgan shaxsni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi nogironligi bo'lgan shaxs uchun tavsiya xususiyatiga ega. Shu sababli, ushbu shaxs reabilitatsiya chora-tadbirlarining u yoki bu turidan, shakli va hajmidan, shuningdek dasturni amalga oshirishdan butunlay voz kechishga haqli.

10. Nogironligi bo'lgan shaxs o'zining reabilitatsiya qilishning muayyan texnik vositasi yoki boshqa vositasi yoxud turi, shu jumladan avtomobillar, o'rindiqli aravachalar, protez-ortopediya moslamalari, maxsus harfli matbaa nashrlari, ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, signalizatorlar, subtitrli yoki surdotarjimali videomateriallar va boshqa shu kabi vositalar bilan ta'minlanishi to'g'risidagi masalani mustaqil ravishda hal qilishga haqlidir. Reabilitatsiya qilishning texnik vositalari va xizmatlari nogironligi bo'lgan shaxslarga natura shaklida taqdim etiladi.
11. Hisobga olish kerakki, nogironligi bo'lgan shaxslar boshqa fuqarolar bilan barobar darajada sog'lioni saqlash, sifatlari va ularning ehtiyojlarini hisobga oluvchi tibbiy yordamdan foydalanish huquqiga ega, ularning huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni qabul qilish aynan davlatga yuklatilgan.
12. Har qanday jamiyatda nogironlar sanoqsiz to'sqinlik va to'siqlarga duch keladilar – ular chiqa olmaydigan zinapoyalar, ular o'qiy olmaydigan e'lonlar – bular bari ularning to'laqonli hayot kechirishiga xalaqit beradi. Foydalanish imkoniyati (9-modda) deganda jamiyatning barcha a'zolari, jumladan nogironlar uchun obyektlar va xizmatlardan foydalanishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tushuniladi.
13. **Ta'lim.** Nogironlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, ta'lim olishda ko'p sonli to'siqlarga duch kelishi mumkin.
Bu to'siqlarga, jumladan, quyidagilar kiradi:
 - kambag'allik;
 - maktablarda o'quvchilar sonining oshib ketganligi;
 - malakali pedagoglar yetishmasligi;
 - muvofiq xonalar va nogiron o'quvchilarni qo'llab-quvvatloving yetishmasligi;
 - obyektlarning qulay emasligi;
 - o'quv dasturlarining qulay emasligi.
14. Ta'limdan to'siqsiz foydalanish ta'lim tizimining o'zigagina bog'liq emas. Hatto maktab o'qishga nogiron bolalarni qabul qilsa ham, transport vositalarining mavjud emasligi mактабгача yo'lni bosib o'tishni

qiyinlashtiradi va hatto, imkonsiz qiladi. Ba'zida esa, matabning o'zi noqulay bo'ladi. Jismoniy infratuzilmanni o'zgartirish murakkab vazifa bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin har doim ham bunday emas.

15. Qulaylikni ta'minlash maqsadida binolarni qayta jihozlash salmoqli xarajatlarni talab qilmaydi va ayrim tadqiqotlar ko'rsatishicha, nogironlar uchun qulay binolar qurilishida xarajatlar 1 foizdan kamroqqa ortadi.
16. Ma'lumotlarga ko'ra, nogironlarni maktab ta'llimi bilan qamrab olish rivojlanayotgan mamlakatlarda ba'zida 1-3 foizdan oshmaydi, shu sababli nogiron bolalarning qariyb 98 foizi maktabga bormaydi va savodsiz sanaladi.

Nogiron bolalarning aksariyati maktabga qatnamas ekan, yalpi boshlang'ich ta'llimi ta'minlashni ko'zda tutuvchi barqaror rivojlanish maqsadi (BMT BRM)ga erishib bo'lmaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotlar ko'rsatishicha, oddiy maktabda o'qiydigan bolalar, jumladan jiddiy nuqsonlarga ega bo'lganlar, boshlang'ich maktabni yakunlash, o'rta maktabda o'qishni davom ettirish va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lismi, ish topish, yaxshi pul topish va o'z jamiyatining faol a'zosi bo'lismi borasida katta imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

17. Konvensiyada hayotning turli bosqichlarida ta'llimning ko'plab jihatlari ko'rib chiqiladi (24-modda). Asosiy vazifa nogiron bolalar maktabga barcha bosqichlarda qatnashlarini rag'batlantirishdan iborat (24-moddaning 2-qismi, a bandi).

Konvensiyaga ko'ra, buning uchun eng yaxshi vosita – bolalarning eng yaxshi qiziqishlariga asosiy e'tiborni qaratish (24-moddaning 2-b bandi) kerak bo'ladi.

Shuningdek, Konvensiyada bolalik paytida ta'llim olishga imkon berilmay, savodsiz qolgan yoki yetarli ta'llim darajasiga ega bo'limgan katta yoshli nogironlarning ko'p qismi uchun o'qitilishning zarurligi ta'kidlanadi. Unda, shuningdek, kattalar uchun, jumladan nogiron bo'lib qolgan va buning oqibatida ishlash imkoniga ega bo'lismi uchun, xususan kasbiy ta'llim yoki o'rta yoxud oliy ta'llim olish yo'li bilan o'z bilimini chuqurlashtirishni istaydigan yoki bunga majbur bo'lgan

kattalar uchun ta'limning va butun umr davomida o'qitilishning ahamiyati e'tirof etiladi (24-modda 5- bandi).

Konvensiyada bayon etilgan ta'limga yondashuv muayyan ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lib, ulardan inklyuziv ta'lim o'qitilish, jumladan intellektida buzilishlar mavjud bolalar uchun yaxshi sharoitlar yaratibgina qolmay, to'siqlar va stereotip tasavvurlarni bartaraf etishga ham xizmat qilishi yaqqol kelib chiqadi. Bunday yondashuv nogironlikdan cho'chimay, uni boricha qabul qilishga tayyor jamiyatni yaratish imkonini beradi. Bunda nogiron bolalar ham, nogiron bo'limganlar ham birga o'sadilar, bir maktabda partada birga o'tiradilar, ular bir-birlarini yaxshiroq tushunadilar va ko'proq hurmat qiladilar.

- 18.** Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga 20-modda sifatida ilk bor inklyuziv ta'lim to'g'risidagi modda kiritildi.

"Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi".

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-modasida aytishicha, "Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiylor'ta va or'ta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi". Ushbu moddadan tushunilishicha, inklyuziv ta'lim ustuvor emas, bor-yo'g'i amalda mavjud **shakklardan biri, xolos**.

- 19.** Inklyuziv ta'lim nafaqat nogironligi bo'lgan bolalarni qamrab olishi, balki barcha yoshlardagi nogironlik va o'ziga xos rivojlanishga ega odamlarga ham taalluqli bo'lishi lozim.

2018-yilda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ikki foizli kvota kiritilganidan keyin, jismoniy nuqsonlarga ega talabalar uchun o'quv muassasalari va OTM yotoqxonalarining noqulayligi, eshitish qobiliyatida nuqsoni bor talabalar uchun imo-ishora tili

tarjimonlari, ko'rish qobiliyatida nuqsoni bor talabalar uchun Brayl shriftidagi o'quv qo'llanmalari va alohida ta'lif ehtiyojlariga ega talabalar uchun boshqa, aql doirasidagi moslamalar yetishmasligi tufayli, inklyuziv oliy ta'lif masalasi dolzarb tus oldi.

20. 2018-yilda, qo'shimcha ikki foizli kvota tufayli, I va II guruh nogironligiga ega abituriyentlar O'zbekistonda birinchi marta oliy ta'lif olish huquqlarini amalga oshirdilar. Bu mamlakatda inklyuziv oliy ta'lif rivojlanishi sari birinchi salmoqli qadam. Ammo pozitiv diskriminatsiya choralar qanchalik samarali va nogironligi bo'lgan insonlarni oliy ta'limga to'laqonli jalb etish uchun yana nimalar qilish kerak?
21. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan nogironligi bo'lgan insonlarga milliy OTMlarga kirishda afzallik huquqlarini taqdim etish ko'zda tutilgandi. Ya'ni, hukumat barcha abituriyentlar uchun tenglik tamoyiliga asoslandi va nogironlik belgisiga ko'ra ijobjiy diskriminatsiya choralarini qo'lladi, holbuki, muddatli harbiy xizmatni o'tagan abituriyentlarga kirish testlarida ballar qo'shib berish ko'rinishidagi imtiyozli shartlar bir necha yildan beri mavjud.

2018-yil 2-iyundagi nogironligi bo'lgan shaxslarni OTMga qabul qilish tartibiga muvofiq, tasarrufida oliy ta'lif muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralardan, shuningdek bevosita OTMlardan, Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda, "nogironligi bo'lgan shaxslardan kirish imtihonlari olinadigan va ularni o'qitish amalga oshiriladigan auditoriyalar va binolarda zaruriy sharoitlarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish" talab etildi.

22. Umumiy ta'liddagi inklyuzivlik quydagilarni ta'minlashi zarur:
 - nogironlar tasarrufi uchun tegishli vositalar va o'quv materiallarini taqdim etish;
 - barcha bolalar va barcha o'quvchilar, jumladan nogironlarning ehtiyojlarini hisobga oladigan va xilma-xillikni rag'batlantiradigan o'qitish metodikasi va o'quv dasturlarini qo'llash;
 - pedagoglarni inklyuziv sinflarda dars berishga tayyorlash va bir-birlariga yordam berishga rag'batlantirish;

- barcha o'quvchilar, jumladan nogiron bo'limgan o'quvchilarning turli ehtiyojlariga imkon doirasida javob beruvchi qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'stish;
- ko'r va kar bolalar yoki ko'r-kar bolalar ta'limdan foydalana olishlari va o'zaro muloqot qila olishlari uchun Brayl shrifti va imo-ishora tilini o'rganishda yordamlashish.

Maxsus ta'limga asoslangan maktab tizimidan inkyuziv tizimga o'tish sinchkovlik bilan rejalashtirilishi va bolaning ehtiyojlari va eng yaxshi qiziqishlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu masalada ota-onalar, hamjamiyatlar rahbarlari va pedagoglar tomonidan qo'llab-quvvatlash kerak bo'ladi.

23. Odatda, inkyuziv tizim maxsus ta'limni nazarda tutuvchi tizimga qaraganda arzon bo'ladi. Yagona kompleks ta'lim tizimi ikkita alohida tizimga qaraganda kamxarjroq. Yagona tizim boshqaruva ma'muriy xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi, bunda transport xarajatlari ham kamayadi, chunki, qoidaga ko'ra, maxsus o'quv muassasalariga xizmat ko'stuvchi ma'muriy birliklar o'z o'lchamiga ko'ra kattaroqdir.
24. Tajriba ko'stishicha, maxsus ta'limga muhtoj, jumladan aqliy faoliyatida nuqsoni bor bolalarning 80 foizidan 90 foizigachasi, ijtimoiy inkyuziyada ularga kerakli yordam ko'stutishi sharti bilan, odatiy muktab osonlik bilan o'qiy oladilar.
25. **Mehnat va bandlik** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasiga muvofiq, har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'limgan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Moddaning ushbu qoidalari kuchga kirgan va amal qilayotgan Mehnat kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunlari, hukumat, vazirliklar va idoralarning tegishli hujjatlari bilan rivojlandi va ta'minlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tiklanishi va rivojlanishi barobarida, mazkur qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjalarga, bosqichma-bosqich, ish bilan ta'minlanishda qoshimcha davlat yordamiga muhtoj alohida guruh sifatida nogironlarning mehnat kafolatini kuchaytirishga qaratilgan zaruriy o'zgartishlar va qoshimchalar kiritildi.

Bandlik (27-modda) iqtisodiy mustaqillik, oila qurish va milliy iqtisodiyot rivojiga hissa qoshayotganlik hissini tuyishga ko'maklashib, jamiyat hayotida qatnashish uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi.

- 26.** Shu bilan birga, dunyoning hech bir mamlakatida nogironlar mehnat bozoriga to'laqonli jalb qilinmagan. Ularning aksariyati yo ishsiz, yoki faol ish izlashdan hafsalasi pir bo'lgan. Ishlayotganlar ichida ko'plar to'liqsiz ish vaqt sharoitida ishlaydi, minimal ish haqidan kam ish haqi oladi yoki o'zining malakasiga mos kelmaydigan ishni bajaradi. Bunday iqtisodiy faoliyatda qatnashish imkoniyatining mavjud emasligi nogironlar hayotida jiddiy aks etadi, chunki ular yetarli hayot darajasiga bo'lgan huquqdan (28-modda) foydalana olmaydilar va mahalliy hamjamiyatda mustaqil hayot tarzini yurita olmaydilar (19-modda).
- 27.** "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonuning 43-moddasi davlat muassasalari va xususiy korxonalarga ish o'rinalining kamida 3 foizini nogironligi bo'lgan insonlar uchun ajratish majburiyatini yuklaydi.
- 28.** Sog'lijni saqlash vazirligi huzurida 2018-yil mart oyida tashkil etilgan Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kvotaga amal qilishni nazorat qilish va riosa etmaganlik uchun jarima yig'ish bilan shug'ullanishi lozim edi, ammo hozirgacha bu ish qanday amalga oshirilayotgani aniq emas.
- 29.** Hozircha nogironligi bo'lgan insonlarni ish bilan ta'minlashning 2 foizli kvotasi bo'yicha yaratilgan bo'sh ish o'rinalining alohida elektron reyestri mavjud emas, bu ham bajarilmaganligi uchun ma'muriy javobgarlik ko'zda tutilgan ushbu majburiy kvotaning amalga oshirilishini monitoring qilish qiyinlashradi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bo'sh ish o'rirlar milliy bazasida "Kvotalanadigan ish o'rirlari" bo'limi ishlab chiqish bosqichida turibdi.

- 30.** Soliq kodeksining 337-moddasi yuridik shaxslar uchun 3 foizli kvota me'yordan ortiq ishga olingan nogironligi bo'lgan shaxslarning har bir foizi uchun soliq stavkasini 1% ga kamaytirishni ko'zda tutadi. Qolaversa, 2018-yil 1-avgustdan boshlab mehnat shartnomasiga aossan ishlaydigan xodimlarining kamida 30 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar hisoblangan tadbirkorlik subyektlari uchun alohida imtiyozlar amal qiladi.
- 31.** Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishda taqdim etiladigan imtiyozlar va preferensiyalar haqidagi xabardorlikning sust ekanligi Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor NNT, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining o'zi tushuntirish ishlarini nomutanosib olib borganligining oqibati bo'lishi mumkin. Bu tushuntirish ishlarini Prezidentning 2018-yil 11-iyundagi PQ-3782-son Qaroriga muvofiq olib borish lozim.
- 32.** Prezidentning 2019-yil 23-avgustdagagi PQ-4423-son Qarori nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoatchilik birlashmalari korxonalarini rag'batlantirish maqsadlaridagi qator chora-tadbirlarni ko'zda tutadi.
Bunday chora-tadbirlar sirasida davlat buyurtmachilariga ishlovchilari umumiyligi sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat va nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiyligi mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslarning tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni xarid qilish uchun kvotalar taqdim etishi keraklidir.
- 33.** Davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar birlashmalari ishlab chiqaradigan mahsulotlar xaridi to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishidagi yaxshi chora-tadbir bo'lardi va ularni ishga joylashtirishga ko'maklashishning samarali mexanizmi bo'lib xizmat qilgan bo'lar edi.

- 34.** Umuman olganda, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sharoit yaratishning davlat uchun ahamiyatini aniq belgilash deyarli imkonsiz, chunki u ko'plab omillarga ega bo'lib, ularni pul ekvivalentida ifodalash qiyin.
- 35.** Real voqeliklarga tayanib qayd etish mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyotining rasmiy sektorida ishlaydigan nogironligi bo'lgan shaxslar byudjetdan tashqari pensiya fondidan ularning pensiyalariga xarajatlarning taqriban 50 foizini qoplaydilar, shuningdek bandlikka ko'maklashish fondiga ajratmalar o'tkazadilar va muayyan holatlarda daromad solig'i to'laydilar.
- 36.** Nogironligi bo'lgan insonlarni ish bilan ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati yanada muhimligi tufayli, ularni munosib va qulay ish bilan ta'minlashning iqtisodiy ahamiyatini yuqori baholash mumkin. Munosib va qulay ish bilan ta'minlash faqat moddiy farovonliknigina anglatmaydi. Nogironligi bo'lgan kishilarni ish bilan ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati ularning o'z qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlarini, jamiyat rivojiga o'zlarining xos ulushlarini qo'sha olishlarini ta'minlashdan, muloqot va ijtimoiylashuv uchun imkoniyatlar taqdim etishdan iborat. Nogironligi bo'lgan insonlarni ish bilan ta'minlash, shuningdek, ularga achinish, qobiliyatlariga ishonmaslik kabi stereotip munosabatlarni, shuningdek ularni jamiyat uchun yuk sifatida qabul qilishni yengish imkonini beradi.
- 37.** Nogironlarning iqtisodiy huquqlarini amalga oshirish uchun aholini imtiyozli kreditlar, shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklarida, hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlikda o'zini o'zi band qilishni rivojlantirish orqali xususiy tadbirkorlikka jalb qilish ko'zda tutilgan, bu asosan xotin-qizlar va imkoniyati cheklangan odamlarni ishga joylashga ko'maklashadi.
- 38.** NHK 28-moddasiga muvofiq, nogironlar va ularning oilalari uchun yetarli turmush darajasi yetarlicha ovqatlanish, kiyim-kechak va turar joy va hayot sharoitining yaxshilanishini o'z ichiga oladi.

Nogironlarning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini va bu huquqlardan nogironlik belgisi bo'yicha kamsitilmasdan foydalanishlari quyidagi choralarni o'z ichiga oladi:

- nogironlarning toza svuga boshqalar bilan teng ega bo'lishlarini hamda nogironlik bilan bog'liq tegishli va qimmat bo'lмаган xizmatlar, qurilmalar va boshqa yordamdan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash;
- nogironlarning, shu jumladan nogiron ayollar, qizlar va keksa kishilarning ijtimoiy himoya qilish va qashshoqlik ko'lamlarini qisqartirish dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash;
- qashshoqlik sharoitida turmush kechirayotgan nogironlar va ularning oilalarini nogironlik bilan bog'liq xarajatlarini, shu jumladan tegishlichcha ta'lim olish, maslahat, moliyaviy yordam va vaqtincha patronaj parvarishini olish bo'yicha xarajatlarni qoplash maqsadidagi davlat yordamini olishlarini ta'minlash;
- nogironlarning davlat turar joy dasturlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;
- nogironlarning pensiya nafaqalari va dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash.


Afsuski, nogironlar va ularning oilalarining yetarli turmush darajasiga bo'lgan huquqi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topmagan.



MUHOKAMA UCHUN QUYIDAGI SAVOLLAR BERILADI:

- ❖ Nogironlarning NHKda mustahkamlab qo'yilgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarining o'ziga xos jihatlari;
- ❖ "Abilitatsiya", "reabilitatsiya" va "inklyuziv ta'lif" tushunchalarini izohlab bering;
- ❖ Milliy qonunchilik va amaliyotda nogironlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari qanday amalga oshirilmoqda?
- ❖ Milliy qonunchilikda nogironlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini (24, 26, 27, 28-moddalar) amalga oshirish qay darajada ta'minlanga?

Nogironligi bo'lgan shaxslar to'siqsiz foydalanishi lozim bo'lgan maxsus va yordamchi xizmatlar



7-MAVZU

NOGIRONLARNING SIYOSIY, IJTIMOIY VA MADANIY HAYOTDA ISHTIROK ETISHI



MAVZUNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mashg'ulotning **maqsadi** – davlat nogironlarning siyosiy huquqlarini va bu huquqlardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatini qanday kafolatlashi, shuningdek, nogironlarning madaniy hayotda ishtirok etishlari uchun davlat tomonidan qanday choralar ko'riliishi kerakligini ko'rsatishdir

Seminarning o'z oldiga qo'ygan **vazifalari**:

- nogironlarning ovoz berish va saylanish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun ularga berilishi lozim bo'lgan kafolatlarni aniqlash;
- nogironlar davlat ishlarini boshqarishda kamsitilmasdan va boshqalar bilan teng ravishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishda davlat qanday yordam berishi mumkinligini tushuntirish;
- nogironlarning madaniy huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan ko'rildigan barcha ehtimoliy chora-tadbirlarni tushuntirish. .



SEMINAR MAZMUNI

- 1.** Avvalo, saylovlarni o'tkazish bilan bog'liq kafolatlarni aniqlab olish zarur bo'lib, ular quyidaglarni o'z ichiga oladi:
 - ovoz berish tartib-taomillari, binolari va ovoz berishda qo'llaniladigan materiallar maqbul, ommabop va tushunarli bo'lishi zarur;
 - nogironlarning saylovlar va referendumlarda qo'rqtishlarsiz yashirin ovoz berishda ishtirok etish, saylovlarda o'z nomzodini ilgari surish, barcha darajadagi davlat hokimiyati organlarida assistiv va yangi texnologiyalardan foydalangan holda barcha davlat funksiyalarini bajarish huquqlarini ta'minlash va himoya qilish;
 - nogironlarning saylovchilar sifatida o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishini kafolatlash, ularga ovoz berishda ko'maklashish.
- 2.** Shuningdek, davlat ishlarini boshqarishda kamsitilmasdan va boshqalar bilan teng ravishda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishni tushuntirish zarur bo'lib, bu quyidagilarda ifodalananadi:
 - mamlakatning davlat va siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari, shu jumladan siyosiy partiyaning faoliyatida ishtirok etish;
 - nogironlarni respublika, mintaqaviy va mahalliy darajada vakillik qilish uchun nogironlar tashkilotlarini yaratish va ularga qo'shilish.
- 3.** Madaniy hayotning nogironlar ishtirok etishi kerak bo'lgan turli shakllariga e'tibor berish va bu davlat tomonidan kafolatlanishi zarur. Bularning barchasi quyidagilardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash bilan bog'liq:
 - ommabop formatdagi madaniy ishlar;
 - teledasturlar, filmlar, teatrlar, muzeylar, kutubxonalar;
 - milliy madaniy ahamiyatga ega yodgorliklar va obyektlar.

4. Shuni ta'kidlash kerakki, nogironlarning siyosiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish, birinchi navbatda, Konvensiyaning eng muhim prinsipi sifatida, uning "Foydalanish imkoniyati" deb nomlangan 9-moddasi bilan ta'minlanishi zarur.
5. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning nafaqat o'z manfaati, balki butun jamiyat farovonligi yo'lida o'z ijodiy va badiiy salohiyatini rivojlantirish va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratish choralarini ko'rishi zarur.
6. Konvensiyaning 30-moddasi davlatlar xalqaro huquqqa muvofiq intellektual mulkka egalik huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar nogironlarning madaniyat asarlaridan foydalanishlari uchun asossiz yoki kamsituvchi to'siq bo'lib qolmasligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rishi zarurligi ta'kidlanishiga e'tibor qaratish lozim.
7. Shuningdek, Konvensiyada nogironlar boshqalar bilan teng ravishda ularning alohida madaniy va tili o'ziga xosligi, shu jumladan ishora tillari va karlar madaniyati e'tirof etilishi va qo'llab-quvvatlanishi huquqiga egaligi belgilangan.
8. Nogironlar bo'sh vaqtlarini o'tkazish, dam olish va sport tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun quyidagi zaruriy choralar alohida sanab o'tiladi:
 - nogironlar uchun maxsus dam olish va sport tadbirlarini tashkil etish imkoniyati;
 - nogironlarni tegishli ta'lim, o'qitish va resurslar bilan ta'minlash;
 - sport va sayyoqlik obyektlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;
 - nogiron bolalar o'yinlarda, bo'sh vaqtlarini o'tkazish, dam olish va sport dasturlarida, shu jumladan mакtab tizimi doirasidagi tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlari;
 - nogironlar bo'sh vaqt ni o'tkazish, turizm, dam olish va sport tadbirlarini tashkil etish bilan shug'ullanadiganlar xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari.

“Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida”gi qonunning 27-moddasida Konvensiyaning 30-moddasi qoidalari ancha to’liq amalga oshirilgan.

9. “Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida”gi qonunda nogironlarning siyosiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish bo’yicha Konvensiyada keltirilgan tartiblarni o’z ichiga olgan bir qator moddalarini (18, 24, 25, 26, 27-moddalari) o’rganib chiqib, ular transport vositalari va yo’l infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlari, mehmonxona binolaridan to’siqsiz foydalanish, axborotdan foydalanish imkoniyati, madaniy hayotda ishtirok etish, dam olish va sport bilan shug’ullanish huquqlari kabi mexanizmlarni qamrab olganligini aytishimiz mumkin. Ushbu moddalarни tahlil qilish qonun darajasida Konvensiyaning siyosiy va madaniy huquqlarga oid g’oyalari va tamoyillari, aksar hollarda, amalga oshirilganligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Biroq amaliyot va amalda joriy qilish darajasida, birinchi navbatda, ulardan to’siqsiz foydalanish bo’yicha hali ko’p ishlar qilinishi zarur.



MUHOKAMA UCHUN QUYIDAGI SAVOLLAR BERILADI:

- ❖ Nogironlarning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyada mustahkamlangan siyosiy huquqlari kafolatlarida foydalanish imkoniyatlarining qanday xususiyatlari mavjud?
- ❖ Davlat ishlarini boshqarish huquqi bo'yicha nogironlarning qanday kafolatlari mavjud?
- ❖ Nogironlarning siyosiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish qaysi davlat organlari va tashkilotlariga bog'liq?
- ❖ Nogironllarning Konvensiyada ko'rsatilgan siyosiy va madaniy huquqlarining O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotida amalga oshirilishi darajasini aniqlang.
- ❖ O'zbekistonda nogironlarning madaniy huquqlarini amalga oshirishning qanday mexanizmlari yaratilgan?
- ❖ Oxirgi yillarda O'zbekistonning davlat dasturlarida nogironlarning madaniy huquqlarini rivojlanterish uchun qanday choralar ko'rilmoxda?

YAKUNIY NAZORAT UCHUN TESTLAR

1-QISM (1-3-MAVZULAR)

- 1.** Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning yangiligi nimada?
 - a. Nogironlar huquqlarini ta'minlashga inson huquqlarini himoyasi jihatdan va ijtimoiy yondashuv.
 - b. Nogironlar uchun inklyuziv tenglik g'oyasi amalga oshirilgan.
 - c. XXI asr konvensiyasi.
 - d. Nogironlar huquqlarini himoya qilish uchun xayriya yondashuvi.
- 2.** Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning maqsadi nima?
 - a. Barcha nogironlarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'liq va teng foydalanishini rag'batlantirish, himoya qilish va ta'minlash.
 - b. Nogironlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik, ma'muriy va tashkiliy choralarni ko'rish.
 - c. Nogironlarning to'laqonli hayot kechirishi uchun sharoit yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatini taqdim qilish.
 - d. Nogironlarning shaxsiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlash.
- 3.** Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning qaysi tamoyillari faqat nogironlarning huquqlariga xos hisoblanadi?
 - a. Nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish.
 - b. To'siqsiz foydalanish.
 - c. Imkoniyatlarning tengligi.
 - d. Barcha javoblar to'gri.
- 4.** Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq, nogironlar uchun to'siqsiz foydalanishning qanday turlari ta'minlanishi zarur?
 - a. Jismoniy muhit, transport, axborot va aloqa xizmatlaridan to'siqsiz foydalanish.
 - b. Ish va o'qishdan to'siqsiz foydalanish.
 - c. Ishlar va xizmatlardan to'siqsiz foydalanish.
 - d. Ijtimoiy va tibbiy xizmatlardan to'siqsiz foydalanish.

5. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarining amalga oshirilishini nazorat va monitoring qilishning xalqaro mexanizmlari nimada?
 - a. Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaning nazorat mexanizmlari va konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo'yicha davriy hisobotlar.
 - b. Xalqaro tashkilotlarning ishtiroki va xalqaro tartib-taomillardan foydalanish.
 - c. Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita tomonidan davlatlarning hisobotlarini eshitish.
 - d. Davlatlarning bmt organlariga beradigan hisobotlari.
6. O'zbekiston Respublikasining nogironlar huquqlarini ta'minlash borasidagi davlat siyosati qaysi yo'naliishlardan iborat?
 - a. Nogironlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; nogironlarning huquqlari va inklyuziv ta'lim olish imkoniyatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash.
 - b. Nogironlarning boshqa fuqarolar bilan teng huquq va imkoniyatlar tengligini ta'minlash, nogironlarni jamiyat va davlat hayotiga jalb qilish.
 - c. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalari bo'yicha jamiyatda ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.
 - d. Barcha javoblar to'g'ri.
7. Nogironlarning huquqlarini amalga oshirishda qanday organlar va tashkilotlar ishtirok etadi?
 - a. Vazirlar mahkamasi, ijtimoiy himoya milliy agentligi, nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash, nogironlar huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat organlari.
 - b. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, muktabgacha va muktab ta'limi vazirligi, bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, inson huquqlari bo'yicha milliy markaz.
 - c. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash.
 - d. Nogironlarning jamoat birlashmalari, inson huquqlari bo'yicha milliy markaz.

- 8.** Nogironlarning jamoat birlashmalari nima?
- Nogironlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga jamiyat va davlat hayotida boshqa fuqarolar kabi ishtirok etish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida nogironlar tomonidan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlari.
 - Nogironlarni kamshitishning oldini olish uchun tuzilgan jamoat tashkilotlari.
 - Nogironlarning muammolarini hal qilish uchun tuzilgan notijorat tashkilotlari.
 - Nogironlarni ishga joylashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlari.
- 9.** Nogironlarning huquqlarini ta'minlash tamoyili sifatida "to'siqsiz foydalanish" nima?
- Nogironlarning jismoniy muhit, transport, axborot va kommunikatsiyalardan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan boshqalar bilan teng ravishda foydalanishini ta'minlash bo'yicha tegishli choralar.
 - Obyektlar va xizmatlardan foydalanish.
 - Foydalanish imkoniyatiga xalaqit qiluvchi to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralar.
 - Nogironning mustaqil turmush tarzini olib borish va turmushning barcha jabhalarida to'liq ishtirok etish imkoniyati.
- 10.** Universal dizayn nimani anglatadi?
- Moslashtirish yoki maxsus dizayn talab qilinmaydigan, barcha odamlar tomonidan maksimal darajada foydalanish uchun obyektlar, muhitlar, dasturlar va xizmatlarni loyihalash.
 - Atrof muhitni nogironlar ehtiyojlariiga moslashtirish.
 - Nogironlar qulayligi uchun obyektlar va jihozlarni oqilona moslashtirish.
 - Nogironlarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan boshqalar bilan teng ravishda foydalanishi yoki foydalanishini ta'minlash uchun atrof muhitni modifikatsiya qilish.

11. Shaxsni nogironligi bo'yicha kamsitish nimani anglatadi?
- Maqsadi yoki natijasi nogironlarning, boshqalar kabi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik yoki boshqa sohalardagi huquq va erkinliklarini amalga oshirishlarini tan olish yoki amalga oshirishni rad etishdan iborat bo'lgan har qanday ajratish, istisno qilish, bekor qilish, cheklash harakatlari.
 - Nogironlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki fuqarolik huquqlarini amalga oshirishdagi huquqlarining tengligini buzish.
 - Jismoniy muhit, transport, axborot va aloqa vositalaridan to'siqsiz foydalanishning buzilishi yoki yo'qligi.
 - Nogironlarning hayotning turli sohalardagi huquq va erkinliklarini cheklash.

2-QISM (4-7-MAVZULAR)

1. Nogiron uchun shaxsiy mustaqillik nimani anglatadi?
- O'z hayoti uchun javobgar bo'lish va o'z tanlovini qilish erkinligiga ega bo'lish layoqati.
 - Shaxsiy mustaqillik, nogironlar, boshqalar kabi, o'zlarining shaxsiy hayotiga boshqalarning minimal aralashuvi barobarida, oqilona hayot tanloviiga ega bo'lishlari va zarur hollarda, tegishli yordam bilan o'zlar qaror qabul qilishlari mumkinligi.
 - O'z hayoti va vaqtini boshqarish mustaqil tasarruf etish layoqati.
 - Nogironning tanlov qilish imkoniyati.
2. Nogironligi bo'lgan shaxs uchun odil sudlovdan foydalanish nimani anglatadi?
- Ma'lumotlarni aniq va tushunarli shaklda taqdim etish.
 - Turli xil aloqa shakllarini tan olish va ulardan foydalanish va sud jarayonining barcha bosqichlarida jismoniy foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
 - Da'vegarning moliyaviy imkoniyatlarini va da'veoning asosliligini baholashning me'yoriy mezonlarini hisobga olgan holda yuridik yordamga muhtoj bo'lgan taqdirda moliyaviy yordam ko'rsatish.
 - Barcha javoblar to'gri.

- 3.** O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunida nogironlarning qanday shaxsiy huquqlari (18, 19 va 21-moddalar) mustahkamlangan?
- Nogironlik belgisiga ko'ra tenglikni hamda va kamsitilmaslikka yo'l qo'ymaslikni ta'minlash.
 - Nogironlarning shaxsiy hayot daxlsizligi.
 - Oila va oilaviy muhit huquqi, fuqarolik va erkin harakatlanish huquqi.
 - Barcha javoblar to'gri.
- 4.** "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq nogironlarning madaniy huquqlari, dam olish va sport bilan shug'ullanishi qanday ta'minlanadi?
- Davlat organlari va tashkilotlari nogironlarning moddiy madaniy meros obyektlari, sayyohlik va sport bino va inshootlari, shuningdek, dam olish maskanlariga to'siqsiz kirishi va ulardan foydalanishini ta'minlaydi.
 - Nogironlar uchun maxsus dam olish va sport tadbirlarini tashkil etish imkoniyati.
 - Nogironlar va ularning oila a'zolarining madaniy, sport va turizm tadbirlarida ishtirok etishiga ko'maklashish.
 - Nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda madaniy, sport va ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish.
- 5.** Davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdar shaxslari nogironligi bo'lgan shaxslarning murojaat qilish (arizalar, shikoyatlar, takliflar bilan) huquqini amalga oshirish uchun qanday zarur shart-sharoitlarni yaratishi shart?
- Imo-ishora tilini shaxslararo muloqot vositasi sifatida e'tirof etish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, uni rivojlantirish hamda jamiyat va davlat hayotining turli sohalarida qo'llash choralarini ko'rish.
 - Nogironlarning huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hollarda surdo-tarjima xizmatlarini ko'rsatish.
 - Nogironligi bo'lgan shaxslar o'z murojaatlarini imzolash uchun faksimil imzodan foydalanishlari.
 - Barcha javoblar to'gri.

- 6.** Nogironlar uchun ijtimoiy himoya nimani anglatadi?
 - a. Davlat tomonidan nogironlarga hayot faoliyatidagi cheklovlarni bartaraf qilish, o'zgartirish (qoplash) uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish uchun ularga boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni yaratishga yo'naltirilgan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy choralarni kafolatlash tizimi.
 - b. Nogironlarning huquqlarini amalga oshirishdagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar majmui.
 - c. Nogironlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda to'siqlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.
 - d. Turli xizmatlarni nogironlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ko'rsatish.
- 7.** Reabilitatsiya nima?
 - a. Nogironga, olingen nogironligi natijasida jamiyatda faoliyat ko'rsatishga qaytadan o'rGANishi kerak bo'lgan katta odamlarga xos bo'lgan, yo'qotilgan qobiliyatlar va mahoratlarni qaytarishdir.
 - b. Nogironlar uchun hayot faoliyatidagi cheklovlarini yengib o'tish, ijtimoiy mavqeini tiklash, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish va mustaqil yashash uchun sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar.
 - c. Organizmning buzilgan yoki yo'qotilgan funksiyalarini, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxsning muayyan mehnat faoliyati turlarini bajarishga layoqatini tiklash, kompensatsiyalashga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, kasbiy va jismoniy reabilitatsiya chora-tadbirlarini amalga oshirish.
 - d. Barcha javoblar to'gri.
- 8.** Abilitatsiya nima?
 - a. Insonning jamiyatda faoliyat ko'rsatishiga yordam beradigan kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish. Bu tug'ma nogiron bolalar uchun mo'ljallangan dasturlardir.
 - b. Tibbiy-ijtimoiy, psixologik va pedagogik, shuningdek nogiron bolalarga taqdim etiladigan boshqa korreksion xizmatlar.
 - c. Nogironlar uchun yo'qolgan funksiyalarni tiklash uchun mo'ljallangan natura ko'rinishidagi texnik vositalar va xizmatlar.
 - d. Barcha javoblar to'gri.

9. Inklyuziv ta'lrim nima?

- a. Alovida ta'lrim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lrim oluvchilar uchun ta'lrim tashkilotlarida ta'lrim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlash.
- b. Nogironlarni bilan birga o'qish uchun sharoit yaratish.
- c. Barcha bolalarga, shu jumladan jismoniy yoki aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalarga teng munosabatda bo'lish, ta'lrim olishda har qanday kamshitishlarga yo'l qo'ymaslik.
- d. Barcha javoblar to'gri.

O'QUV VA ME'YORIY-HUQUQIY MATERIALLAR

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.
<https://lex.uz/ru/docs/-6445145>
- Davlat boji to'g'risida.// <https://lex.uz/docs/-4680944>
- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.// <https://lex.uz/ru/docs/-4674902>
- O'zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksi.// <https://lex.uz/docs/-106136>
- O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.// <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
- "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020-yildagi O'RQ-641-son
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>
- "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida", O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019-yildagi O'RQ-595-son
- "Ahолига сифатли ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 01.06.2023-yildagi PF-82-son.
- "O'zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida".
- O'zbekiston Respublikasining 17.05.2022-yildagi O'RQ-770-son Qonuni.

- “Keksalar va nogironligi bo’lgan shaxslarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021-yildagi PF-26-son.
- “Oliy ta’lim muassasalariga nogironligi bo’lgan shaxslarni qo’shimcha davlat granti kvatalari asosida o’qishga qabul qilish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.06.2018-yildagi 417-son.
- “Nogironligi bo’lgan shaxslarning avtotransport vositalaridan foydalanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.03.2018-yildagi 183-son.
- “Ariza beruvchi-uy quruvchining 2017-2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihibar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturida ishtirok etishi tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.02.2018-yildagi 103-son.
- “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021-yildagi 638-son // <https://lex.uz/docs/-5679836>
- “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2017-yildagi PF-5216-son, Kuchga kirgan sana – 30.10.2017
- “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”, O’zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.12.2016-yildagi O’RQ-416-son.
- “O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi tizimining turg’un davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanishni tashkil etish va uning uchun haq to’lash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.02.2016 yildagi 31-son.

- "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.08.2015 yildagi 237-son.
- "Uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha kompensatsiya pul to'lovlaring mehanizmi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida", O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i, 07.05.2015-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2175-3.
- "O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning ayrim masalalari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.03.2015 yildagi 53-son.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.02.2015-yildagi PF-4704-son.
- "Uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha kompensatsiya pul to'lovlaring mehanizmi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida", O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i, 09.01.2015 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2175-2.
- "Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.09.2014 yildagi 263-son.
- "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.06.2012 yildagi 185-son.
- "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalari tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.04.2012 yildagi 109-son.
- "O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining buyrug'i, 11.07.2011 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2243.

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”, O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.12.2010-yildagi O'RQ-272-son.
- “Sotib olingan reabilitatsiya texnik vositasi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun kompensatsiya to‘lash tartibi to‘g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.06.2009 yildagi 166-son.
- “Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g’risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.05.2009-yildagi 145-son.
- “Hududiy sog‘liqni saqlash muassasalarining tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.03.2008-yildagi 48-son.
- “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to‘g’risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.09.2004-yildagi 419-son.
- “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g’risida”, O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.08.2003-yildagi O'RQ-535-II-son.
- “Chernobil halokatidan ziyon ko‘rgan O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash haqida”, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.04.1992 yildagi 170-son.
- Parlament a’zolari uchun qo’llanma: “Nogironlar huquqlari to‘g’risida”gi xalqaro konvensiya va uning Fakultativ protokoli. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/tadqiqot-va-nashr-qilingan-materiallar>
- Nogironlar huquqlari to‘g’risidagi konvensiya va uning Fakultativ protokoli. O‘quv-uslubiy qo’llanma (rus tilida).// https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Publications/CRPD_TrainingGuide PTS19_RU.pdf

- Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirish bo'yicha texnik ma'lumotlar. // <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099052223112035849/pdf/P1783520faee9f09d0a46307d56768f9126.pdf>
- Nogironlarning huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida faoliyat yurituvchi xalqaro shartnoma va shartnomadan tashqari organlarning huquqiy pozitsiyalarini umumlashtirish. Rossiya Federatsiyasi Oliy sudining Qonunchilikni tizimlashtirish va sud amaliyotini tahlil qilish boshqarmasi. 2018-yil.

1-ILOVA

NOGIRONLAR HUQUQLARI TO'G'RISIDA KONVENSIYA

Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr

MUQADDIMA

Ushbu Konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlar,

- a) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida e'lon qilingan insoniyat oilasining barcha a'zolariga xos qadr-qimmat va qadriyatlar hamda ularning teng va ajralmas huquqlari prinsiplari ozodlik,adolat va yalpi tinchlikning asosi deb e'tirof etilishini eslatib,
- b) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarda har bir inson ushbu hujjalarda ko'zda tutilgan huquqlar va erkinliklarga hech qanday tafovutsiz egalik qilishini e'lon qilganligi va mustahkamlab qo'yanligini tan olib,
- c) insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarining yalpiligi, ajralmasligi, o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqadorligini, shuningdek nogironlarga ulardan kamsitilmasdan to'la foydalanish kafolatlanishi zarurligini tasdiqlab,
- d) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, Qiynoqqa solish va shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan boshqa muomala va jazolashga qarshi Konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya va Barcha muhojir mehnatkashlar va ular oilalari a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiyaga havola qilib,
- e) nogironlik – bu tadrijiy rivojlanib boruvchi tushuncha, nogironlik buzilgan salomatlik hamda munosabat va muhit to'siqlari o'zaro munosabatlari natijasi bo'lib, va bu ularning jamiyat hayotida boshqalar bilan teng va samarali ishtirok etishiga xalaqit berishini tan olib,

- f) Nogironlarga nisbatan jahon harakat dasturi va Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash standart qoidalarida qayd etilgan prinsiplar va dasturamal mo'ljallar nogironlarga yanada teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalardagi strategiyalar, rejalar, dasturlar va tadbirlarni rag'batlantirish, rasmiylashtirish va baholashga ta'siri nuqtai nazaridan muhimligini tan olib,
- g) nogironlik muammolarini barqaror rivojlanish strategiyasining tegishli tarkibiy qismlari sifatida dolzarblashtirish muhimligini ta'kidlab,
- h) shuningdek, har qanday shaxsni nogironlik belgisi bo'yicha kamsitish inson shaxsiga xos qadr-qimmatni xo'rash ekanligini tan olib,
- i) shundan keyin nogironlikning ko'p turliligini tan olib,
- j) barcha nogironlarning, shu jumladan faolroq qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lganlarning huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishning zarurligini tan olib,
- k) ushbu turli hujjatlar va tashabbuslarga qaramasdan nogironlar jamiyat hayotida teng huquqli a'zolar sifatida ishtirok etish yo'lida to'siqlarga duch kelishi davom etayotganligidan hamda jahonning barcha qismlarida ularning inson huquqlari buzilayotganligidan tashvishlanib,
- l) har bir mamlakatda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda nogironlar turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik muhimligini tan olib,
- m) nogironlarning mahalliy hamjamiyatlarning umumiyligi farovonligi va turfa xilligiga hozirgi va kelajakdagи qimmatli hissasini hamda nogironlar tomonidan o'zlarining inson huquqlari va asosiy erkinliklarini to'la amalga oshirishlariga yordam berish, shuningdek nogironlarning to'laqonli ishtirok etishi ularda daxldorlik tuyg'usini mustahkamlash va jamiyatning inson taraqqiyoti, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida salmoqli muvaffaqiyatlarga erishish hamda qashshoqlikka barham berish imkonini berishini tan olib,
- n) nogironlar uchun ularning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan o'z mustaqil tanloving erkinligi muhimligini tan olib,
- o) nogironlar strategiyalar va dasturlar, shu jumladan bevosita ularga taalluqli strategiya va dasturlar bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lislari kerak deb hisoblab,
- p) nogironlar irqi, terisining rangi, jinsi, tili, diniy, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy, etnik, aborigen yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug'ilishi, yoshi

- yoki boshqa xususiyatlari belgisi bo'yicha juda ko'p va keskin shakldagi kamsitishga duch kelishlari bilan bog'liq og'ir sharoitlaridan tashvishlanib,
- q) nogiron ayollar va nogiron qizlar uylarida ham, uylari tashqarisida ham ko'pincha zo'ravonlik, jarohatlanish yoki tajovuz qilish katta xavfiga, hurmatsizlik yoki qo'pol munosabatga, yomon muomala yoki eksplutatsiyaga duch kelishlarini tan olib,
 - r) nogiron bolalar insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklaridan boshqa bolalar bilan teng holda to'la hajmda foydalanishlari kerakligini tan olib va shu munosabat bilan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni eslatib,
 - s) nogironlarning inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'la foydalanishlariga yordam berish bo'yicha barcha sa'y-harakatlarda gender xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlab,
 - t) nogironlarning ko'pchiligi qashshoqlik sharoitida yashashlarini ta'kidlab va shu munosabat bilan nogironlarga qashshoqliknинг salbiy ta'siri muammozi bilan shug'ullanish o'ta zarurligini tan olib,
 - u) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida hamda inson huquqlari sohasida qo'llanila oladigan shartnomalarda bayon etilgan maqsad va prinsiplarini to'la hurmat qilishga asoslangan tinchlik va xavfsizlik vaziyati nogironlarni, jumladan qurolli mojarolar va chet el bosqinchiligi davrida to'la himoya qilishning so'zsiz sharti ekanligini e'tiborga olib,
 - v) jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhitdan, sog'liqni saqlash va ta'limdan, shuningdek axborot va aloqadan foydalanish imkoniyati muhimligini, chunki bu nogironlarga barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanish imkonini berishini tan olib,
 - w) har bir alohida insonning boshqa odamlar va o'zi mansub bo'lgan jamoa oldida majburiyatlarga ega ekanligini va u Inson huquqlari xalqaro billida tan olingen huquqlarni rag'batlantirish va ularga rioya etilishiga erishishga intilishi kerakligini e'tiborga olib,
 - x) oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi ekanligini, u jamiyat va davlat tomonidan muhofaza qilinish huquqiga egaligini hamda nogironlar va ular oilalarining a'zolari oilalarga nogironlar huquqlaridan to'la va teng foydalanish ishiga hissa qo'shish imkonini beradigan zarur himoya va yordamga ega bo'lishlariga komil ishonchda,

- y) nogironlarning huquqlari va qadr-qimmatlarini rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi yalpi qamrovli va yaxlit Konvensiya nogironlarning abgor ijtimoiy ahvollariga barham berishga hamda ularning ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlarda fuqarolar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda teng imkoniyatlarga ega bo'lgan holda ishtirok etishlarini kengaytirishga komil ishonchda,

quyidagilarga rozi bo'lishdi:

1-MODDA

Maqsad

Ushbu Konvensianing maqsadi barcha nogironlarning insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish, himoya qilish hamda to'la va keng amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek ularga xos qadr-qimmatni hurmat qilishni rag'batlantirishdir.

Nogironlarga turli to'siqlar bilan o'zaro munosabatda ularning boshqalar bilan teng holda jamiyat hayotida to'la va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradigan barqaror jismoniy, psixik, intellektual yoki sensor buzilishlari bo'lgan shaxslar taalluqlidir.

2-MODDA

Tushunchalar

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun:

"muomala" – tillardan, matnlardan, Brayl alifbosi, taktil muomalasi, yirik shrift, foydalanish imkoniyati bo'lgan multimedia vositalari, ayni vaqtida bosma materiallar, audiovositalar, sxuandonlarning odatiy tili, shuningdek muomalani kuchaytiruvchi va muqobil usullari, vositalari va shakllari, shu jumladan foydalanish imkoniyati bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qamrab oladi;

"til" – og'zaki va ishora tillarini hamda og'zaki bo'limgan tillarning boshqa shakllarini qamrab oladi;

“nogironlik belgisi bo'yicha kamsitish” – maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaro yoki har qanday boshqa sohada boshqalar bilan teng holda insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarining e'tirof etilishi yoki amalga oshirilishini kamsitadigan yoki rad etadigan har qanday tafovut, istisno yoki cheklashni anglatadi. U kamsitishning barcha shakllarini, shu jumladan oqilona moslashtirishdan voz kechishni qamrab oladi;

“oqilona moslashtirish” – nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirish maqsadlarida aniq bir holatda zarurat bo'lganda mos kelmaydigan yoki oqlanmaydigan yuk bo'lmaydigan zarur va muvofiq modifikatsiyalar va tuzatishlar kiritishni anglatadi;

“universal dizayn” – barcha odamlar uchun moslashtirish yoki maxsus dizaynni talab etmaydigan holda eng yuqori imkoniyat darajasida yaroqli qilishga da'vat etilgan buyumlar, sharoit, dastur va xizmatlar dizaynni anglatadi. “Universal dizayn” zarurat bo'lganda aniq bir nogironlar uchun assistiv qurilmalarni istisno etmaydi.

3-MODDA

Umumiylar

Ushbu Konvensiyaning prinsiplari quyidagilardan iborat:

- a) insonga xos bo'lgan qadr-qimmatni, uning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan mustaqil tanlovi erkinligini hamda mustaqilligini hurmat qilish;
- b) kamsitmaslik;
- c) jamiyatga to'la va samarali jalb etish va qo'shish;
- d) nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish;
- e) imkoniyatlarning tengligi;
- f) to'siqsiz foydalanish;
- g) erkaklar va ayollarning tengligi;
- h) nogiron bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish va nogiron bolalarning o'z shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish.

4-MODDA

Umumiy majburiyatlar

1. Ishtirok etuvchi davlatlar barcha nogironlar tomonidan nogironlik belgisi bo'yicha hech qanday kamsitishsiz insonning barcha huquqlarini amalga oshirish va asosiy erkinliklarini to'la ta'minlash va rag'batlantirish majburiyatini oladi. Shu maqsadda ishtirok etuvchi davlatlar quyidagi majburiatlarni oladi:

- a) ushbu Konvensiyada e'tirof etiladigan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarini ko'rish;
- b) nogironlarga nisbatan kamsitish xususiyatiga ega mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlarni o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha zarur choralarini, shu jumladan qonunchilik choralarini ko'rish;
- c) barcha strategiyalar va dasturlarda nogironlar huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirishni hisobga olish;
- d) Ushbu Konvensiyaga to'g'ri kelmaydigan har qanday harakatlar yoki usullardan tiyilish hamda davlat organlari va muassasalari ushbu Konvensiyaga muvofiq ish tutishlarini ta'minlash;
- e) har qanday shaxs, tashkilot yoki xususiy korxona tomonidan nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni bartaraf etish uchun zarur choralarini ko'rish;
- f) nogironlarning aniq ehtiyojlari uchun moslashtirish iloji boricha kam o'zgartirish va xarajat talab qiladigan tovarlar, xizmatlar, jihozlar va universal dizayn obyektlarining (ushbu Konvensiyaning 2-moddasida belgilab qo'yiladigan) ilmiy-tadqiqot va konstrukturlik ishlanmalarini olib borish yoki rag'batlantirish, ularning mavjud bo'lismiga va ulardan foydalanishga yordam berish, shuningdek standartlar va ko'rsatkich mo'ljallarini ishlab chiqishda universal dizayn g'oyasini ilgari surish;
- g) nogironlar uchun mos tushadigan yangi texnologiyalar, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, harakatchanlik, qurilmalar va assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalarning ilmiy-tadqiqot va konstrukturlik ishlanmalarini olib borish yoki rag'batlantirish, bunda arzon texnologiyalarga birinchi darajali e'tibor berish;
- h) harakatchanlik, qurilmalar va assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalar, shu jumladan yangi texnologiyalar, shuningdek yordam ko'rsatish, qo'shimcha xizmatlar va obyektlar to'g'risida foydalanish imkoniyati bo'lgan axborotlarni nogironlarga taqdim etish;

- i) ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni mazkur huquqlarda kafolatlangan yordam va xizmatlarni taqdim etishni takomillashtirish uchun mutaxassislar va nogironlar bilan ish olib boradigan personalni o'qitishni rag'batlantirish.
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga kelganda, har bir ishtirok etuvchi davlat mazkur huquqlarni ushbu Konvensiyada belgilab berilgan majburiyatlarga ziyon yetkazmagan holda bosqichma-bosqich to'la amalga oshirishga erishish uchun o'zida mavjud bo'lgan resurslardan iloji boricha to'liq foydalanish, zarurat bo'lganda esa xalqaro hamkorlikdan foydalanish majburiyatini oladi.
3. Ushbu Konvensiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan qonunchilik va strategiyani ishlab chiqish va qo'llashda hamda nogironlarga taalluqli masalalar bo'yicha qaror qabul qilishning boshqa jarayonlari doirasida ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar, shu jumladan nogiron bolalar bilan yaqindan maslahatlashish hamda ularni o'zlarining vakilliklari orqali bu ishga faol jalb etish choralarini ko'radi.
4. Ushbu Konvensiyadagi hech bir narsa ishtirok etuvchi davlatlarning qonunlarida yoki mazkur davlatda amal qiladigan xalqaro huquq normalarida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan nogironlar huquqlarini amalga oshirishga ko'proq darajada yordam beradigan biror qoidaga daxli yo'q. Ushbu Konvensiyada ishtirok etuvchi qaysidir bir davlatda e'tirof etiladigan yoki mavjud bo'lgan insонning qaysidir huquqlari va asosiy erkinliklarini bu huquqlar yoki erkinliklar ushbu Konvensiyada e'tirof etilishi yoki kichikroq hajmda e'tirof etilishi sababi bilan hech qanday cheklash yoki kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.
5. Ushbu Konvensiyaning qoidalari federal davlatlarning barcha qismlariga biror cheklashlarsiz yoki qisqartirishsiz holda amal etadi.

5-MODDA

Tenglik va kamsitmaslik

1. Ishtirok etuvchi davlatlar barcha shaxslar qonun oldida teng ekanligini va unga ko'ra qonun tomonidan biror kamsitishsiz teng himoyalanish hamda undan teng foydalanish huquqiga egaligini tan oladi.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlik belgisi bo'yicha har qanday kamsitishni man etadi hamda nogironlarga har qanday asosda kamsitishdan teng va samarali huquqiy himoyani kafolatlaydi.
3. Ishtirok etuvchi davlatlar tenglikni rag'batlantirish va kamsitishni bartaraf etishda oqilona moslashishni ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.
4. Nogironlarning amaldagi tengligini ta'minlashni tezlashtirish yoki bunga erishish uchun zarur bo'lgan barcha aniq choralar ushbu Konvensiya ma'nosi bo'yicha kamsitish hisoblanmaydi.

6-MODDA

Nogiron ayollar

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogiron ayollar va nogiron qizlar juda ko'p kamsitilishini tan oladi va shu munosabat bilan ular tomonidan barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini to'la va teng amalga oshirilishini ta'minlash uchun choralar ko'radi.
2. Ishtirok etuvchi davlatlar ayollarga ushbu Konvensiyada mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirishni kafolatlash uchun ayollarning ahvolini yaxshilash, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarни ko'radi.

7-MODDA

Nogiron bolalar

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogiron bolalarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini boshqa bolalar bilan teng ravishda to'la amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.
2. Nogiron bolalarga nisbatan barcha sa'y-harakatlarda bolaning oliy manfaatlariga birinchi darajali e'tibor qaratiladi.
3. Ishtirok etuvchi davlatlar nogiron bolalar yoshlariga va yetukligiga muvofiq bo'lgan zarur salmoq oladigan o'z qarashlarini boshqa bolalar bilan teng ravishda

erkin ifoda etish huquqiga ega bo'lishlarini hamda ushbu huquqlarni amalga oshirish uchun nogironliklari va yoshiga mos bo'lgan yordamni olishlarini ta'minlaydi.

8-MODDA

Ma'rifiy-tarbiyaviy ish

1. Ishtirok etuvchi davlatlar quydagilarga erishish uchun kechiktirib bo'lmaydigan, samarali va zarur choralarni ko'rish majburiyatini oladi:

- a) butun jamiyatning, shu jumladan oila darajasida nogironlik masalalari bo'yicha bilimini oshirish hamda nogironlarning huquq va qadr-qimmatini hurmat qilishni mustahkamlash;
- b) nogironlarga nisbatan turmushning barcha jahbalarida, shu jumladan jinsi va yoshi asosidagi aqidalar va zararli odatlar bilan kurash olib borish;
- c) nogironlarning salohiyati va hissasini targ'ib etish.

2. Shu maqsadda ko'rيلayotgan choralar quydagilarni qamrab oladi:

- a) quydagilarga da'vat etilgan samarali ijtimoiy-ma'rifiy kampaniyalarni avj oldirish va olib borish:
 - i) nogironlar huquqlarini tan olishni o'rgatish;
 - ii) nogironlar to'g'risidagi ijobiy tasavvurlarni va ularning jamiyat tomonidan chuqurroq anglanishini rag'batlantirish;
 - iii) nogironlarning ko'nikmalari, qadr-qimmati va qobiliyati, shuningdek ularning ish joyi va mehnat bozoridagi hissasi e'tirof etilishiga ko'maklashish;
- b) ta'lim tizimining barcha darajalarida, shu jumladan kichik yoshdan boshlab barcha bolalarni nogironlar huquqiga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruvida tarbiyalash;
- c) barcha ommaviy axborot vositalarida nogironlarni ushbu Konvensiya maqsadlariga mos tushadigan tarzda tasvirlashga da'vat etish;
- d) nogiron va ularning huquqlariga bag'ishlangan tarbiyaviy-tanishtirish dasturlarini ilgari surish.

9-MODDA

Foydalanish imkoniyati

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar mustaqil turmush kechirish va turmushning barcha jabhalarida har taraflama ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda jismoniy muhitdan, transportdan, axborot va aloqadan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimidan hamda shaharlarda ham, qishloq joylarida ham aholi uchun ochiq yoki taqdim etiladigan boshqa obyektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarni ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi. Foydalanish imkoniyatiga xalaqit beradigan to'siqlarni aniqlash va bartaraf etishni qamrab oladigan ushbu choralar, jumladan, quyidagilardan iborat:

- a) binolar, yo'llar, transport hamda boshqa tashqi va ichki obyektlar, shu jumladan maktablar, turar-joylar, tibbiyot muassasalari va ish joylari;
- b) axborot, kommunikatsiya va boshqa xizmatlar, shu jumladan elektron xizmatlar va shoshilinch xizmatlar.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar, shuningdek quyidagi zarur choralarni ko'radilar:

- a) aholi uchun ochiq yoki taqdim etiladigan obyektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ko'zda tutadigan minimal standartlar va ko'rsatkich mo'ljallarini ishlab chiqish, amalga kiritish va ularga rioya etilishini nazorat qilish;
- b) aholi uchun ochiq yoki taqdim etiladigan obyektlar va xizmatlarni taklif etadigan xususiy korxonalar nogironlar foydalanish imkoniyatlari uchun barcha jihatlarni hisobga olishlarini ta'minlash;
- c) nogironlar duch keladigan foydalanish imkoniyati muammolari masalasiga aloqador barcha tomonlar uchun yo'riqnomalar berishni tashkil etish;
- d) aholi uchun ochiq binolar va boshqa obyektlarga Brayl alifbosida bajarilgan, oson o'qiladigan va tushuniladigan shakldagi belgilarni joylashtirish;
- e) aholi uchun ochiq binolar va boshqa obyektlardan foydalanish imkoniyatini yengillashtirish uchun yordamchilar va vositachilarning turli xizmatlarini, shu jumladan yo'l ko'rsatuvchilar, suxandonlar va professional surdotarjimonlar xizmatlarini taqdim etish;

- f) nogironlarning axborotdan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan yordam va qo'llab-quvvatlashning boshqa zarur shakllarini rivojlantirish;
- g) nogironlarning yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlaridan, shu jumladan Internetdan foydalanish imkoniyatlarini rag'batlantirish;
- h) avvalboshdan foydalanish imkoniyati bo'lgan, kam xarajat talab etadigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini loyihalash, ishlab chiqish va tarqatishni rag'batlantirish.

10-MODDA

Yashash huquqi

Ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning yashash ajralmas huquqini yana bir bor tasdiqlaydi va nogironlar boshqalar bilan teng ravishda bu huquqni samarali amalga oshirishlarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

11-MODDA

Tahdidli va favqulodda gumanitar vaziyatlar

Ishtirok etuvchi davlatlar o'zlarining xalqaro huquq, shu jumladan xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari xalqaro huquqi bo'yicha majburiyatlariga muvofiq nogironlarni tahdidli vaziyatlarda, shu jumladan qurolli mojarolar, favqulodda gumanitar vaziyatlar va tabiiy ofatlar paytida himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

12-MODDA

Qonun oldidagi tenglik

1. Ishtirok etuvchi davlatlar har bir nogiron, u qayerda bo'lmasin, teng huquqiy himoya huquqiga ega ekanligini tasdiqlaydi.
2. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar hayotning barcha sohalarida boshqalar bilan teng ravishda huquq layoqatiga ega ekanligini e'tirof etadi.

3. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarga ular o'zlarining huquqqa layoqatini amalga oshirishlarida talab etilib qolinishi mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlashni taqdim etish uchun zarur choralarni ko'radi.

4. Ishtirok etuvchi davlatlar huquqqa qodirlikni amalga oshirish bilan bog'liq barcha choralar inson huquqlari xalqaro huquqiga muvofiq suiste'molliklarning oldini olishini ko'zda tutishi uchun zarur va samarali kafolatlarni ta'minlaydi. Bunday kafolatlars huquqqa layoqatni amalga oshirish bilan bog'liq choralar shaxsnинг huquqlari, irodasi va moyilliklarini hurmat qilishga yo'naltirilgan bo'lishi, manfaatlar nizosi va noo'rin ta'sirdan xolis bo'lishi, ushbu shaxs vaziyatiga muvofiq va moslashtirilgan bo'lishi, iloji boricha qisqa muddatda qo'llanilishi hamda vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud idorasi tomonidan muntazam tekshirilishini ta'minlashi kerak. Ushbu kafolatlars mazkur shaxsnинг huquqlari va manfaatlariga qay darajada ta'sir ko'rsatsa, shu darajada bo'lishi kerak.

5. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu modda qoidalarini hisobga olgan holda nogironlarning mulkka egalik qilish va uni meros qilib olish, o'z moliyaviy ishlarini boshqarish, shuningdek bank ssudalari, ipoteka kreditlari va moliyaviy kreditlashning boshqa shakllaridan foydalanishda teng huquqliklarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rmoqda hamda nogironlar o'z mulkidan asossiz ravishda mahrum bo'lmasliklarini ta'minlaydi.

13-MODDA

Odil sudlov huquqidан foydalanish

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar boshqalar bilan teng ravishda odil sudlovdan samarali foydalanishlari imkoniyatini ta'minlamoqda, shu jumladan yuridik jarayonning barcha bosqichlarida, jumladan surishtirish bosqichlari va ish yuritishning boshqa boshlang'ich bosqichlarida o'zlarining bevosita va bilvosita ishtirokchilar, shu jumladan guvohlar sifatidagi samarali rolini bajarishlarini yengillashtirishga qaratilgan protsessual va yoshlariga muvofiq tuzatishlar kiritishni nazarda tutadi.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning odil sudlovdan samarali foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashga ko'maklashish uchun odil sudlovnı amalga oshirish

sohasida, shu jumladan politsiya va penitensiar tizimida ishlaydigan shaxslarni zarur tarzda o'qitishga ko'maklashadi.

14-MODDA

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar boshqalar bilan teng huquqqa ega bo'lishlari uchun quyidagilarni ta'minlaydi:

- a) ozodlik va shaxsiy daxlsizlik huquqidan foydalanish;
- b) qonunsiz va asossiz ravishda ozodlikdan mahrum bo'lmaslik va har qanday ozodlikdan mahrum etish qonunga muvofiq bo'lishi, nogironlik esa hech bir holatda ozodlikdan mahrum etish uchun asos bo'lmasligini.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar agar qaysidir bir tartib asosida nogironlar ozodlikdan mahrum etilsa, ular uchun inson huquqlari xalqaro huquqiga muvofiq bo'lgan kafolatlar berilishini hamda ular bilan muomala ushbu Konvensiyaning maqsad va prinsiplariga, shu jumladan oqilona moslashtirishni ta'minlashga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

15-MODDA

Qiynoq hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kansituvchi turlaridan ozod bo'lish

1. Hech kim qiynoqqa solinishi yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kansitadigan muomala yoki jazoga duchor bo'lishi mumkin emas. Jumladan, biror shaxs uning erkin roziligidisiz tibbiy yoki ilmiy tajribaga duchor qilinmasligi kerak.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar boshqalar bilan teng ravishda qiynoqqa solinish yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kansitadigan muomala va jazolashga duchor qilinmasligi uchun barcha samarali qonunchilik, ma'muriy, sud yoki boshqa choralarни ko'radi.

16-MODDA

Ekspluatatsiya qilinish, zo'ravonlik va tahqirlashlardan ozod bo'lish

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarni uylarida ham, uning tashqarisida ham ekspluatatsiya, zo'ravonlik va tajovuz qilishning barcha shakllaridan, shu jumladan gender sababi bilan bog'liq jihatlardan himoya qilish uchun barcha zarur qonunchilik, ma'muriy, ijtimoiy, ma'rifiy va boshqa choralarni ko'radi.
2. Ishtirok etuvchi davlatlar ekspluatatsiya, zo'ravonlik va tajovuzning barcha shakllarining oldini olish uchun zarur choralarni, jumladan nogironlarning yosh-jins xususiyatini hisobga olgan holda ularga, ularning oilalariga va nogironlarni parvarish qilayotgan shaxslarga yordam berish hamda ularni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan ekspluatatsiya, zo'ravonlik va tajovuz ko'rinishlariga duchor bo'lmaslik, bunday holatlarni aniqlash va xabar berish yo'llari bilan tanishtirish, bu masaladagi xabardorliklarini oshirish uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Ishtirok etuvchi davlatlar himoya taqdim etish bo'yicha xizmatlar nogironlikning yosh-jins xususiyatlari va omillarini hisobga olgan holda ko'rsatilishini ta'minlaydi.
3. Ishtirok etuvchi davlatlar ekspluatatsiya, zo'ravonlik va tajovuzning barcha shakllarining oldini olishga intilib, nogironlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan barcha muassasalar va dasturlar mustaqil organlar tomonidan samarali nazorat qilinishini ta'minlaydi.
4. Ishtirok etuvchi davlatlar ekspluatatsiya, zo'ravonlik yoki tajovuzning har qanday shaklidan jabr ko'rgan nogironlarni jismoniy, kognitiv va psixologik tiklash, reabilitatsiya va ijtimoiy qayta integratsiyalashga yordam berish, shu jumladan himoya taqdim etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish orqali yordam berish uchun zarur choralarni ko'radi. Bunday tiklash va qayta integratsiyalash tegishli shaxsning salomatligini, holatini, o'ziga hurmatni, qadr-qimmatini va mustaqilligini mustahkamlashga yordam beradigan vaziyatda amalga oshirilmoqda hamda yosh-jins xususiyatlari bilan bog'liq ehtiyojlar hisobga olinadi.
5. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarga nisbatan ekspluatatsiya, zo'ravonlik va tajovuz holatlari aniqlanishi, surishtirilishi va zarur holatlarda ta'qib etilishi uchun samarali qonunchilik va strategiyani, shu jumladan ayollar va bolalarga mo'ljallangan qonunchilik va strategiyani qabul qiladi.

17-MODDA

Shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish

Har bir nogiron boshqalar bilan teng ravishda o'zining jismoniy va psixik daxlsizligi hurmat qilinishi huquqiga ega.

18-MODDA

Ko'chib yurish va fuqarolik erkinligi

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda ko'chib yurish erkinligi, yashash joyini tanlash erkinligi va fuqarolik huquqini shu jumladan quyidagilar orqali e'tirof etadi:

- a) fuqarolikni olish va o'zgartirish huquqiga ega bo'lish va fuqarolikdan asossiz yoki nogironlik sababi bilan mahrum etilmaslik;
- b) fuqaroligini tasdiqlaydigan yoki shaxsini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarni olish imkoniyatidan nogironligi sababli mahrum bo'lmaslik, bunday hujjatlarga ega bo'lish va ulardan foydalanish yoki tegishli tartibdan, masalan ko'chib yurish erkinligi huquqini amalga oshirishni yengillashtirish uchun zarur bo'lgan immigratsiya tartibidan foydalanish;
- c) har qanday mamlakatni, shu jumladan o'z mamlakatini erkin tark etish huquqiga ega bo'lish;
- d) asossiz ravishda yoki nogironlik sababli o'z mamlakatiga kirish huquqidan mahrum bo'lmaslik

2. Nogiron bolalar tug'ilgan zahotivoq ro'yxatga olinadi va tug'ilgan zahotivoq ismga ega bo'lish va fuqarolikni olish, shuningdek iloji boricha yuqori darajada o'z ota-onasini bilish huquqi va ulardan g'amxo'rlik ko'rish huquqiga ega bo'ladi.

19-MODDA

Mustaqil turmush tarzi va mahalliy hamjamiyatga jalb qilinish

Ushbu Konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlar barcha nogironlarning odatdag'i yashash joylarida yashashdagi teng huquqlilikni, boshqa odamlar bilan teng ravishda tanlash huquqini e'tirof etadi hamda nogironlar tomonidan bu huquqlarini

to'la amalga oshirish, ularning mahalliy hamjamiyatga to'la kiritilish va jalg etilish huquqini e'tirof etadi, shu jumladan quyidagilarni ta'minlaydi:

- a) nogironlar boshqa odamlar bilan teng ravishda o'z yashash joyini va qayerda kim bilan yashashni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi hamda qandaydir muayyan turar joy sharoitlarida yashashga majbur bo'lmasligi;
- b) nogironlar uyida, yashash joyida va mahalliy hamjamiyat asosida boshqa yordamchi xizmatlardan, shu jumladan mahalliy hamjamiyatda hayotini saqlab turish va hamjamiyatga kirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy yordamdan foydalanishga ega bo'lishi, shuningdek yakkalab qo'yishga yoki mahalliy jamiyatdan chiqarib yuborishga yo'l qo'yilmasligi;
- c) jamoa aholisiga umumiyligi foydalanishga mo'ljallangan xizmatlar va obyektlardan nogironlar ham teng darajada foydalanishi hamda bu ularning ehtiyojiga javob berishi.

20-MODDA

Shaxsiy harakatlanish

Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar eng yuqori imkoniyat darajasida shaxsiy harakatlanishlarini ta'minlash uchun samarali choralar ko'radi, shu jumladan quyidagilar orqali:

- a) nogironlar o'zi tanlaydigan vositada, tanlagan vaqtida va maqbul narxda shaxsiy harakat qilishlariga yordam berish;
- b) nogironlarning harakatlanishini yengillashtiradigan sifatli vositalar, qurilmalar, assistiv texnologiyalar hamda yordamchilar va vositachilarning xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini, shu jumladan bu narsalarni maqbul narxlarda taqdim qilish orqali yengillashtirish;
- c) nogironlarni va ular bilan ish olib boradigan mutaxassis kadrlarni harakatlanish ko'nikmalariga o'qitish;
- d) harakatlanishni yengillashtiradigan vositalar, qurilmalar assistiv texnologiyalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalarni nogironlarning harakatlanishi barcha jihatlarini hisobga olishga da'vat etish.

21-MODDA

Fikr va e'tiqodni ifoda etish erkinligi va axborotdan foydalanish imkoniyati

Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar fikr va e'tiqodlarini erkin ifoda etish huquqini, shu jumladan ushbu Konvensiyaning 2-moddasida belgilab qo'yilgan muomalaning barcha shakllaridan o'z tanlovi bo'yicha foydalangan holda axborot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi, shu jumladan:

- a) nogironlarni foydalanish imkoniyati bo'lgan shaklda va nogironlik turli shakllarini hisobga olgan texnologiyalardan foydalanib, o'z vaqtida va qo'shimcha haq olmasdan keng ommaga mo'ljallangan axborot bilan ta'minlash;
- b) rasmiy muomalada ishora tili, Brayl alifbosi, muomalani kuchaytiradigan va muqobil vositalaridan hamda nogironlarning tanlovi bo'yicha muomalaning boshqa foydalanish imkoniyati bo'lgan barcha vositalari, usullari va shakllaridan foydalanishlariga yordam ko'rsatish;
- c) keng ommaga, shu jumladan Internet orqali xizmat ko'rsatadigan xususiy korxonalarni nogironlar uchun foydalanish imkoniyati bo'lgan va yaroqli shakllardagi axborot va xizmatlar taqdim etishga da'vat etish;
- d) ommaviy axborot vositalarini nogironlar axborotdan, shu jumladan Internet orqali taqdim etadigan xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashga da'vat etish;
- e) ishora tillaridan foydalanishni e'tirof etish va rag'batlantirish.

22-MODDA

Shaxsiy hayotning daxlsizligi

1. Birorta nogiron, yashash joyi yoki turar joy sharoitlaridan qat'i nazar, shaxsiy hayoti, oilasi, turar joyi yoki yozishmalari va boshqa muomala turlarining daxlsizligiga asossiz yoki noqonuniy tajovuz qilinishiga yoki uning sha'ni va obro'siga noqonuniy xurujlarga duchor bo'lmasligi kerak. Nogironlar bunday tajovuzlar yoki xurujlardan himoyalanish huquqiga ega.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning shaxsi, salomatligining holati va reabilitatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqalar bilan teng tarzda maxfiyilagini muhofaza qiladi.

23-MODDA

Uy va oilani hurmat qilish

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarga nisbatan boshqalar bilan teng tarzda nikoh, oila, otalik, onalik va shaxsiy munosabatlarga taalluqli masalalarda kamsitilishlarini bartaraf etish uchun samarali va zarur choralar ko'radi. Bunda ular quyidagilarni ta'minlashga intiladi:

- a) nikoh yoshiga yetgan barcha nogironlarning nikohdan o'tayotganlarning erkin va to'liq roziligi asosida nikohdan o'tish va oila qurish huquqining e'tirof etilishini;
- b) nogironlarning bolalar soni va ular tug'ilishi orasidagi tanaffus to'g'risida erkin va mas'ul qaror qabul qilish hamda reproduktiv va oilani rejalashtirish masalalarida yoshiga mos axborotdan foydalanish imkoniyati hamda bu masalalardan xabardor bo'lish huquqining e'tirof etilishi, shuningdek ularga bu huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlarini beradigan vositalarning taqdim etilishini;
- c) nogironlar, shu jumladan bolalar boshqalar bilan teng tarzda o'z fertilliklarini saqlashlarini.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar milliy qonunchilikda vasiylik, farzandlarni asrab olish yoki shu kabi institutlar to'g'risida qoidalar mavjud bo'lgan taqdirda nogironlarning ushbu masalalar bo'yicha huquq va majburiyatlarini ta'minlaydi; barcha holatlarda bolaning oliy manfaatlari birinchi darajali ahamiyatga egadir. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarga bolalarini tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarini bajarishlarida zarur yordam ko'rsatadi.

3. Ishtirok etuvchi davlatlar nogiron bolalar oilaviy turmushga nisbatan teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqlarni amalga oshirish hamda bolalar nogironligini yashirish, ularni tashlab ketish, parvarish qilishdan bosh tortish va segregatsiyasiga yo'l qo'ymaslik uchun avval

boshdan nogiron bolalar va ular oilalarini har taraflama axborot, xizmatlar va qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlash majburiyatini oladi.

4. Ishtirok etuvchi davlatlar bola o'z ota-onasidan uning irodasiga qarshi ajratilmasligini ta'minlaydi, sud tomonidan nazorat qilinadigan vakolatli organlar qo'llaniladigan qonunlar va tartiblarga muvofiq bunday ajratish bolaning oliv manfaatlari uchun zarur ekanligini belgilagan holatlar bundan mustasnodir. Hech bir vaziyatda bola o'zining, otasi yoki onasidan birortasining yoki ham otasi, ham onasining nogironligi sababiga ko'ra ota-onasidan ajratilishi mumkin emas.

5. Ishtirok etuvchi davlatlar nogiron bolaning eng yaqin qarindoshlari uni parvarish qilishga qodir bo'limgan holatlarda uzoqroq qarindoshlari hisobiga, bunday imkoniyat bo'limganida esa mahalliy hamjamiyatda bola yashashi uchun oilaviy sharoitlarni yaratish hisobiga muqobil parvarish qilishni tashkil etish uchun barcha sa'y-harakatlarni qilish majburiyatlarini oladi.

24-MODDA

Ta'lif

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta'lif olish huquqini e'tirof etadi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta'lifni va butun umri davomida o'qitilishlarini ta'minlaydi, bunda quydagilarga intiladi:

- a) inson salohiyatini, shuningdek qadr-qimmat va o'zini hurmat qilish hissini to'la rivojlantirish hamda inson huquqlari, asosiy erkinliklari va insoniy turfa xillikni hurmat qilishni kuchaytirish;
- b) nogironlarning shaxsi, iste'dodi va ijodini, shuningdek aqliy va jismoniy qobiliyatlarini to'la hajmda rivojlantirish;
- c) nogironlarga erkin jamiyat hayotida samarali ishtirok etish imkoniyatini yaratish.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni amalga oshirishda quydagilarni ta'minlaydi:

- a) nogironlar nogironligi sababiga ko'ra umumiyligi ta'lif tizimidan, nogiron bolalar esa bepul va majburiy boshlang'ich ta'lif yoki o'rta ta'lif tizimidan chiqarilmasligi;

- b) nogironlar boshqalar bilan teng ravishda o'z yashash joylarida inklyuziv, sifatli va bepul boshlang'ich ta'lismi olish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- c) shaxsiy ehtiyojlarni hisobga oladigan oqilona moslashtirish ta'minlanishi;
- d) nogironlar umumiyligi ta'lismi tizimi doirasida samarali ta'lismi olishlarini yengillashtirish uchun talab qilinadigan qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishi;
- e) to'la qamrab olish maqsadiga muvofiq bilimlarni egallash va ijtimoiy rivojlanishga iloji boricha eng samarali yordam berish vaziyatida shaxsiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish bo'yicha samarali choralar ko'riliishi.

3. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar ta'lismi jarayonida hamda mahalliy hamjamiatning a'zolari sifatida to'la va teng ishtirok etishlarini ta'minlash uchun ularga hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarini egallash imkoniyatini yaratadi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu yo'nalishda tegishli choralarni ko'radi, shu jumladan:

- a) Brayl alifbosi, muqobil shriftlarni, muomalani kuchaytiradigan va muqobil usullar, vositalar va shakllarni, shuningdek mo'ljal olish va harakatlanish ko'nikmalarini egallashlariga hamda tengdoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishga va murabbiylilikka ko'maklashadi;
- b) ishorali tilni egallash va karlarning o'ziga xos tilini egallashga yordam beradi;
- c) shaxslarni o'qitish, jumladan ko'zi ojizlar, karlar yoki ko'zi ojiz va kar bo'lgan bolalarni o'qitish ularga eng maqbul bo'lgan til va usullarda, muomala vositalarida hamda bilimlarni egallash va ijtimoiy rivojlanishga iloji boricha eng ko'p yordam beradigan vaziyatda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

4. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquq amalga oshirilishini ta'minlashga ko'maklashish uchun ishorali tilni va/yoki Brayl alifbosini egallagan o'qituvchilar, shu jumladan nogiron o'qituvchilarni ishga jalgan etish hamda ta'lismi tizimining barcha darajalarida ishlayotgan mutaxassislar va personalni o'qitish uchun zarur choralarni ko'radi. Bunday o'qitish nogironlarni qo'llab-quvvatlash uchun nogironlik masalalari hamda muomalaning kuchaytiradigan va muqobil usullari, vositalari va shakllarini, o'quv uslubiyotlari va materiallarini qamrab oladi.

5. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar kamtsilmasdan va boshqalar bilan teng ravishda oliy ta'lismi, kasbiy ta'lismi, kattalar uchun ta'lismi olish va butun hayotlari davomida o'qitilish imkoniyatlariiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ishtirok etuvchi davlatlar shu maqsadlarda nogironlar uchun oqilona moslashtirishni ta'minlaydi.

25-MODDA

Sog'liqni saqlash

Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar nogironlik belgisi bo'yicha kamsitilmasdan salomatliklarining erishish mumkin bo'lgan eng yuqori darajada saqlanishi huquqiga egalar. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar sog'liqni saqlash sohasida gender xususiyatini hisobga oladigan xizmatlardan, shu jumladan salomatliklarining holati bo'yicha reabilitatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Ishtirok etuvchi davlatlar, shu jumladan quyidagi choralarni ko'radi:

- a) nogironlarga boshqalar bilan bir qatorda salomatlikni saqlash bo'yicha bepul yoki qimmat bo'lмаган xizmatlar va dasturlarning turlari, sifati va darajasini, shu jumladan seksual va reproduktiv salomatlik hamda davlat sog'liqni saqlash dasturlari asosida aholiga taklif etilayotgan turlarni ta'minlaydi;
- b) sog'liqni saqlash sohasida nogironlarga ularning nogironligi sababli bevosita zarur bo'lgan xizmatlarni, shu jumladan barvaqt diagnostikani, о'rni bo'lsa – korreksiya va nogironlikning, shu jumladan bolalar va katta yoshdagilar о'rtasida nogironlikning bundan buyon paydo bo'lishiga iloji boricha yo'l qo'ymaslik va buning oldini olishiga da'vat etilgan xizmatlarni taqdim etadi;
- c) sog'liqni saqlash sohasidagi ushbu xizmatlarni iloji boricha ushbu odamlar bevosita istiqomat qiladigan joylarga yaqinda, shu jumladan qishloq joylarida tashkil etadi;
- d) sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislaridan nogironlarga boshqa shaxslarga bo'lgani kabi sifatli xizmat ko'rsatishni, shu jumladan boshqa masalalar qatori ta'lim berish hamda davlat va xususiy sog'liqni saqlash sohasi uchun axloq standartlarini qabul qilish hisobiga inson huquqlari, qadr-qimmati, mustaqilligi va nogironlarning ehtiyojlari to'g'risidagi xabardorligini oshirishni talab etadi;
- e) nogironlarga tibbiy sug'urtalash va hayotni sug'urtalashni (agar bunga milliy qonunchilikda ruxsat berilgan bo'lsa) taqdim etishda ularni kamsitishni man etadi hamda buadolatli va oqilona asosda taqdim etilishini ko'zda tutadi;
- f) nogironlik sababi bo'yicha sog'liqni saqlashda yoki bu sohada xizmat ko'rsatilishida yoxud ovqat yoki ichimliklarni olishda kamsituvchi rad etilishlarga yo'l qo'ymaydi.

26-MODDA

Abilitatsiya va reabilitatsiya

1. Ishtirok etuvchi davlatlar, shu jumladan boshqa nogironlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida, nogironlar iloji boricha mustaqillikka, to'la jismoniy, aqliy, ijtimoiy va kasb qobiliyatlariga erishishlari va buni saqlab qolishlari hamda turmushning barcha sohalariga to'la qo'shilishlari va jalb etilishlari uchun samarali va zarur choralarni ko'radi. Ishtirok etuvchi davlatlar shu maqsadda kompleks abilitatsiya va reabilitatsiya xizmatlari va dasturlarini, ayniqsa sog'liqni saqlash, bandlik, ta'lif va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalarida tashkil etadi, mustahkamlaydi va kengaytiradi. Ular ushbu xizmatlar va dasturlar bo'yicha quyidagi choralarni ko'radi:

- a) ularni iloji boricha erta amalga oshirishga kirishilishi va nogironlarning ehtiyojlari va kuchli jihatlarini ko'p tomonlama baholashga asoslangan bo'lishi;
 - b) mahalliy hamjamiyatga hamda jamiyat hayotining barcha sohalariga jalb etilish va kiritilishiga yordam berishi, ixtiyoriy xususiyatga ega bo'lishi hamda nogironlar uchun iloji boricha bevosita yashash joylariga yaqinda, shu jumladan qishloq joylarida foydalanish imkoniyati bo'lishi.
2. Ishtirok etuvchi davlatlar abilitatsiya va reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatish sohasida ishlaydigan mutaxassis va personalni boshlang'ich va keyingi ta'lif olishini rag'batlantiradi.
3. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarga mo'ljalangan abilitatsiya va reabilitatsiyaga taalluqli assistiv qurilmalar va texnologiyalar bo'lishini, ulardan foydalanishni rag'batlantiradi.

27-MODDA

Mehnat va bandlik

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish huquqini e'tirof etadi; bu mehnat bozori va ishlab chiqarish muhiti nogironlar uchun ochiq, inklyuziv va ishtirok etish imkoniyati bo'lgan sharoitda nogiron o'zi tanlagan va erkin rozi bo'lgan mehnat faoliyati orqali turmush kechirishiga pul ishlab topish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini qamrab oladi. Ishtirok etuvchi

davlatlar mehnat qilish huquqini, shu jumladan mehnat faoliyati davomida nogiron bo'lgan shaxslarning mehnat qilish huquqini, jumladan qonunchilik yo'li bilan belgilangan tartibda amalga oshirish huquqini ta'minlaydi va rag'batlantiradi. Shu jumladan ular quyidagi zarur choralarni ko'radi:

- a) bandlikning barcha shakllarida, shu jumladan ishga qabul qilish, yollash va bandlik, ish joyini saqlab qolish, xizmat lavozimida ko'tarilish, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga taalluqli masalalarda nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni man etish;
- b) nogironlarning boshqalar bilan teng ravishdaadolatli va qulay ish sharoitlariga ega bo'lish, shu jumladan teng qimmatga ega bo'lgan mehnat bilan shug'ullanish va buning uchun teng rag'batlantirish, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga ega bo'lish, shu jumladan xurujlardan himoya qilinish va shikoyatlari qondirilishi huquqlarini himoya qilish;
- c) nogironlar boshqalar bilan teng ravishda o'zlarining mehnat va kasaba uyushma huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash;
- d) nogironlarga umumiyltexnikaviy va kasbiy yo'naltirish dasturlari, ishga joylashtirish xizmatlari, kasbiy va uzluksiz ta'lim olishdan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish;
- e) mehnat bozorida nogironlarning ishga joylashish va xizmat lavozimida ko'tarilish, shuningdek ish izlash, ishga ega bo'lish, ish joyini saqlash va mehnat faoliyatini qaytadan boshlash imkoniyatlarini kengaytirish;
- f) shaxsiy mehnat faoliyati, tadbirkorlik, shirkatlarni rivojlantirish va o'zbiznesini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish;
- g) nogironlarni davlat sektoriga ishga yollash;
- h) nogironlarni tegishli strategiyalar hamda ijobiy harakatlar, rag'batlar va boshqa choralarni qamrab olishi mumkin bo'lgan dasturlar yordamida xususiy sektorda ishga yollashni rag'batlantirish;
- i) nogironlarning ish joylarini oqilona moslashtirishni ta'minlash;
- j) ochiq mehnat bozori sharoitlarida nogironlarning ish tajribalarini o'zlashtirishlarini rag'batlantirish;
- k) nogironlarni kasbiy va malaka reabilitatsiyasini, ish joylarini saqlab qolish va ishga qaytib kelishga qaratilgan dasturlarni rag'batlantirish.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar qullikka va erksiz holatga tushib qolmasliklarini hamda boshqalar bilan teng ravishda zo'raki va majburiy mehnatdan himoya qilinishlarini ta'minlaydi.

28-MODDA

Yetarli turmush darajasi va ijtimoiy himoya

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning o'zлari va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga, shu jumladan yetarlicha ovqatlanish, kiyim-kechakka va turar joyga ega bo'lish hamda turmush sharoitlari uzlusiz yaxshilanib borishi huquqlarini e'tirof etadi, shuningdek ushbu huquqlarni nogironlik belgisi bo'yicha kamsitmasdan amalga oshirishni ta'minlash va rag'batlantirishning zarur choralarini ko'radi.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini va bu huquqlardan nogironlik belgisi bo'yicha kamsitmasdan foydalanishlari huquqini e'tirof etadi hamda ushbu huquqni amalga oshirishni ta'minlash va rag'batlantirish uchun zarur choralarini ko'radi. Shu jumladan quyidagi choralarini ko'radi:

- a) nogironlarning toza suvgaga teng ega bo'lishlarini hamda nogironlik bilan bog'liq tegishli va qimmat bo'lмаган xizmatlar, qurilmalar va boshqa yordamdan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash;
- b) nogironlarning, shu jumladan nogiron ayollar, qizlar va keksa kishilarning ijtimoiy himoya qilish va qashshoqlik ko'lamlarini qisqartirish dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash;
- c) qashshoqlik sharoitida turmush kechirayotgan nogironlar va ular oilalarini nogironlik bilan bog'liq xarajatlarini, shu jumladan tegishlichcha ta'lim olish, maslahat, moliyaviy yordam va vaqtincha patronaj parvarishini olish bo'yicha xarajatlarni qoplash maqsadidagi davlat yordamini olishlarini ta'minlash;
- d) nogironlarning davlat turar joy dasturlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;
- e) nogironlarning pensiya nafaqalari va dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash.

29-MODDA

Siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish

Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning siyosiy huquqlarini va ulardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlaydi hamda quyidagi majburiyatlarni oladi:

- a) nogironlar boshqalar bilan teng ravishda siyosiy va ijtimoiy hayotda bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali samarali va har taraflama ishtirok etishlari, shu jumladan saylash va saylanish huquqlari va imkoniyatlariga ega bo'lishlarini, jumladan, quyidagilar orqali ta'minlash:
 - i) ovoz berish tartiblari, binolari va materiallari anglash va foydalanish uchun mos va oson bo'lishini ta'minlash;
 - ii) nogironlarning saylovlarda va davlat referendumlarida yopiq ovoz berishda qo'rqitilmasdan ishtirok etish hamda o'z nomzodlarini saylovlarda, davlat hokimiyatining barcha darajalarida davlat lavozimlarini amalda egallashiga va davlat funksiyalarini bajarishlariga ko'rsatish huquqlarini – bunda qo'llash maqbul bo'lganda assistiv va yangi texnologiyalardan foydalanishlariga yordam bergan holda himoya qilish;
 - iii) nogironlarning saylovchilar sifatida o'z irodalarini erkin bildirishlarini kafolatlash va shu maqsadda, zarurat bo'lganda, ularning o'z tanlovi bo'yicha birorta shaxs tomonidan ovoz berishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimoslarini qondirish;
- b) nogironlar boshqalar bilan teng ravishda va kamsitilmasdan davlatni boshqarishda samarali va har taraflama ishtirok etishlari uchun zarur sharoitni yaratishga faol ko'maklashish hamda ularning davlat ishlarida ishtirok etishlarini, shu jumladan quyidagilar orqali rag'batlantirish:
 - i) faoliyati mamlakatning davlat va siyosiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan nohukumat tashkilotlari va birlashmalarida, shu jumladan siyosiy partiyalar faoliyatida va ularga rahbarlik qilishda ishtirok etish;
 - ii) nogironlarga nogironlar tashkilotlarini tuzish hamda ularga xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada vakillik qilish uchun a'zo bo'lish.

30-MODDA

Madaniy hayotda, bo'sh vaqt ni o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda madaniy hayotda ishtirok etish huquqini e'tirof etadi va nogironlarga quyidagilarni ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi:

- a) madaniyat asarlaridan foydalanish imkoniyati bo'lgan shakllarda foydalanishlarga imkoniyat yaratish;
- b) televideniye dasturlari, filmlar, teatr va boshqa madaniy tadbirdan foydalanish imkoniyati bo'lgan shakllarda foydalanish imkoniyatini yaratish;
- c) teatrlar, muzeylar, kinoteatrlar, kutubxonalar va turizm xizmatlari kabi madaniy tadbirlar o'tkaziladigan va xizmatlar ko'rsatiladigan joylardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishlari, shuningdek milliy madaniy ahamiyatga ega yodgorlik va obyektlardan eng ko'p imkoniyat darajasida foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishlari.

2. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar ijodi, badiiy va intellektual salohiyatlarini faqat o'zlari uchungina emas, balki butun jamiyatni boyitish uchun rivojlantirish va bu salohiyatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlariga barcha zarur choralarni ko'radi.

3. Ishtirok etuvchi davlatlar xalqaro huquqqa muvofiq intellektual mulkka egalik huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar nogironlarning madaniyat asarlaridan foydalanishlari uchun asossiz yoki kansituvchi to'siq bo'lib qolmasligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi.

4. Nogironlar boshqalar bilan teng ravishda ularning alohida madaniy va tili o'ziga xosligi, shu jumladan ishora tillari va karlar madaniyati e'tirof etilishi va qo'llab-quvvatlanishi huquqiga ega.

5. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar boshqalar bilan teng ravishda bo'sh vaqtlarini o'tkazish, dam olish va sport tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun quyidagi zarur choralarni ko'radi:

- a) nogironlarning barcha darajadagi umumiyo yo'nalishdagagi sport tadbirlarida iloji boricha to'liq ishtirok etishlarini rag'batlantirish va targ'ib etish;

- b) nogironlarning nogironlar uchun maxsus sport va bo'sh vaqtini o'tkazish tadbirlarini tashkil etish, bu tadbirlarni rivojlantirish va ularda ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash hamda shu munosabat bilan ularga boshqalar bilan teng ravishda zarur darajada ta'lim berilishi, o'rgatilishi va resurslar taqdim etilishiga ko'maklashish;
- c) nogironlar sport, rekreatsiya va turizm obyektlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- d) nogiron bolalar boshqa bolalar bilan teng ravishda o'yinlarda, bo'sh vaqtlarini o'tkazish, dam olish va sport dasturlarida, shu jumladan maktab tizimi doirasidagi tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- e) nogironlar bo'sh vaqtini o'tkazish, turizm, dam olish va sport tadbirlarini tashkil etish bilan shug'ullanadiganlar xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash.

31-MODDA

Statistika va ma'lumotlarni to'plash

1. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu Konvensiya ijrosini ta'minlash maqsadida strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradigan zarur axborotlarni, shu jumladan statistika va tadqiqot ma'lumotlarini to'plash majburiyatini oladi. Ushbu axborotni to'plash va saqlash jarayonida quyidagilarga amal etiladi:

- a) nogironlar shaxsiy hayoti maxfiyligi va daxlsizligini ta'minlash uchun belgilab qo'yilgan huquqiy kafolatlarga, shu jumladan ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etish;
- b) statistika ma'lumotlarini to'plash va ulardan foydalanishda inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilishga taalluqli xalqaro e'tirof etilgan normalarga, shuningdek axloq prinsiplariga rioya etish.

2. Ushbu moddaga muvofiq to'plangan axborot tegishli tarzda ro'yxatga olinadi hamda ishtirok etuvchi davlatlar ushbu Konvensiya bo'yicha o'z majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini baholash, shuningdek nogironlar o'z huquqlarini

amalga oshirishda duch kelayotgan to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun foydalaniлади.

3. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu statistika ma'lumotlarini tarqatish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi va nogironlar hamda boshqa shaxslar ulardan foydalana olishlarini ta'minlaydi.

32-MODDA

Xalqaro hamkorlik

1. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu Konvensiya maqsad va vazifalarini amalga oshirish bo'yicha milliy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro hamkorlik va uni rag'batlantirish muhimligini e'tirof etadi hamda shu munosabat bilan, maqbul bo'lganda, tegishli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati, jumladan nogironlar tashkilotlari bilan sheriklikda davlatlararo aloqalar bo'yicha zarur va samarali choralarни ko'radi. Ushbu choralar, jumladan, quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

- a) xalqaro hamkorlik, shu jumladan xalqaro rivojlanish dasturlari nogironlarni qamrab olishini hamda ular bundan foydalana olishlarini ta'minlash;
- b) mavjud imkoniyatlarni yengillashtirish va ularni mustahkamlashni, shu jumladan axborot, tajriba, dasturlar va ilg'or ishlanmalar bilan o'zaro almashish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash;
- c) tadqiqotlar sohasida hamkorlik hamda ilmiy-texnikaviy bilimlardan foydalanishga ko'maklashish;
- d) maqbul bo'lganda, texnikaviy-iqtisodiy yordam ko'rsatish, shu jumladan foydalanish imkoniyati bo'lgan assistiv texnologiyalar bilan o'zaro almashish, shuningdek texnologiyalarni taqdim etish orgali yordam ko'rsatish.

2. Ushbu moddaning qoidalari har bir ishtirok etuvchi davlatning ushbu Konvensiyaga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarish bo'yicha majburiyatlariga taalluqli emas.

33-MODDA

Milliy amalga oshirish va monitoring

1. Ishtirok etuvchi davlatlar o'zlarining tashkiliy tuzilishiga muvofiq ushbu Konvensiyani amalga oshirish bilan bog'liq masalalarga mutasaddilik qiladigan bitta yoki bir nechta organni tayinlaydi hamda turli sektorlar va turli darajalarda tegishli ishlarni amalga oshirishda yordam ko'rsatish uchun hukumatda muvofiqlashtiruvchi mexanizmni ta'sis etish yoki belgilash imkoniyatini zarur darajada o'rjanib chiqadi.
2. Ishtirok etuvchi davlatlar o'zlarining huquqiy va ma'muriy tuzilishiga muvofiq ushbu Konvensiyani amalga oshirishni rag'batlantirish, himoya qilish va monitoringi uchun, maqbul bo'lganda, bitta yoki bir nechta mustaqil mexanizmni qamrab oladigan tuzilmani tayinlaydi yoki ta'sis etadi, uni qo'llab-quvvatlaydi va mustahkamlaydi. Ishtirok etuvchi davlatlar bunday mexanizmni tayinlash yoki ta'sis etishda inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish bilan shug'ullanadigan milliy muassasalarning maqomi va amal etishiga taalluqli prinsiplarni e'tiborga oladi.
3. Fuqarolik jamiyati, jumladan nogironlar va ularning vakolatlari tashkilotlari kuzatish jarayoniga to'la jalb etiladi va unda ishtirok etadi.

34-MODDA

Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita

1. Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita (bundan buyon "Qo'mita" deb ataladi) ta'sis etiladi, u quyida ko'zda tutilgan funksiyalarni bajaradi.
2. Ushbu Konvensiya kuchga kirgan paytda Qo'mita tarkibi o'n ikki ekspertdan iborat bo'ladi, shundan so'ng Konvensiyani yana 60 ta davlat ratifikatsiya qilgandan keyin yoki unga qo'shilgach, Qo'mita a'zolarining soni oltitaga ko'payib, eng ko'p miqdor – o'n sakkiz a'zoga yetadi.
3. Qo'mita a'zolari shaxsan o'z nomidan ish ko'radi hamda yuksak axloqiy fazilatlarga, ushbu Konvensiya qamrab olgan sohalarda e'tirof etilgan bilim va tajribaga ega bo'ladi. Ishtirok etuvchi davlatlarga o'z nomzodlarini ko'rsatish

paytida ushbu Konvensiya 4-moddasi 3-bandida belgilab qo'yilgan qoidalarni zarur darajada hisobga olish taklif etiladi.

4. Qo'mita a'zolari ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan saylanadi, bundaadolatli jug'rofiy taqsimotga, sivilizatsiyalarning va asosiy huquqiy tizimlarning turli shakllari vakolatligiga, jinslarning mutanosibligi va nogiron ekspertlarning ishtirok etishiga e'tibor qaratiladi.

5. Qo'mita a'zolari ishtirok etuvchi davlatlar ko'rsatgan nomzodlar ro'yxati bo'yicha ishtirok etuvchi davlatlarning Konferensiysi majlisida yashirin ovoz berish yo'lli bilan saylanadi. Ishtirok etuvchi davlatlarning uchdan ikki qismi majlisda kvorumni tashkil etganida hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etayotgan ishtirok etuvchi davlatlar vakillarining eng ko'p va mutlaq ko'p ovozini olgan nomzodlar Qo'mita tarkibiga saylangan hisoblanadi.

6. Dastlabki saylovlar ushbu Konvensiya kuchga kirgan kundan kechi bilan olti oy o'tgandan so'ng o'tkaziladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi har bir saylov muddatidan kamida to'rt oy oldin ishtirok etuvchi davlatlarga maktub bilan murojaat qilib, ularga ikki oy mobaynida nomzodlarini ko'rsatishni taklif etadi. Shundan so'ng Bosh kotib ana shu tarzda ko'rsatilgan barcha nomzodlarning ro'yxatini, ularni ko'rsatgan ishtirok etuvchi davlatlarni qayd etgan holda, alfavit tartibida tuzadi va ushbu Konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlarga yuboradi.

7. Qo'mita a'zolari to'rt yil muddatga saylanadi. Ular yana faqat bir marta qayta saylanish huquqiga ega. Biroq birinchi saylovlarda saylanadigan a'zolar olti nafari vakolatining muddati ikki yilda tugaydi; birinchi saylovlardan keyin darhol ushbu olti nafar a'zoning ismlari, mazkur moddaning 5-bandida qayd qilinganidek, majlisda raislik qiluvchi tomonidan qur'a tashlash bo'yicha aniqlanadi.

8. Qo'mitaning olti nafar qo'shimcha a'zosini saylash mazkur moddaning tegishli qoidalari bilan tartibga solinadigan odatdag'i saylovlar paytida o'tkaziladi.

9. Qo'mitaning qaysidir bir a'zosi vafot etsa, iste'foga chiqsa yoki qaysidir boshqa sababga ko'ra o'z majburiyatlarini bundan buyon bajarishga qodir emasligini e'lon qilsa, ushbu a'zo nomzodini ko'rsatgan ishtirok etuvchi davlat vakolatning qolgan muddatiga malakaga ega bo'lgan hamda ushbu moddaning tegishli qoidalarida ko'zda tutilgan talablarga javob beradigan boshqa ekspertni tayinlaydi.

10. Qo'mita o'zining tartib qoidalarni o'rnatadi.

11. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Qo'mita o'zining funksiyalarini ushbu Konvensiyaga muvofiq samarali amalga oshirishi uchun zarur personal va moddiy vositalarni taqdim etadi hamda uning birinchi kengashini chaqiradi.
12. Qo'mitaning ushbu Konvensiyaga muvofiq saylangan a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleysi tomonidan tasdiqlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining mablag'laridan Qo'mitadagi majburiyatlarining muhimligi hisobga olingan holda Assambleya tomonidan o'rnatiladigan tartib va shartlarda rag'batlantiriladi.
13. Qo'mita a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Imtiyozlar va immunitetlar to'g'risidagi Konvensiyasining tegishli bo'limlarida belgilab qo'yilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining ishlari bo'yicha xizmat safarlaridagi ekspertlarning imtiyozlari va immunitetlari huquqiga ega.

35-MODDA

Ishtirok etuvchi davlatlarning ma'ruzalari

1. Har bir ishtirok etuvchi davlat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi orqali Qo'mitaga ushbu Konvensiya bo'yicha o'z majburiyatlarini amalga oshirish uchun ko'rilgan choralar hamda ushbu masalada erishilgan taraqqiyot to'g'risida tegishli ishtirok etuvchi davlat uchun ushbu Konvensiya kuchga kirganidan so'ng ikki yil mobaynida keng qamrovli ma'ruzani taqdim etadi.
2. Ishtirok etuvchi davlatlar shundan so'ng navbatdagi ma'ruzalarni to'rt yilda kamida bir marta, shuningdek Qo'mita bu haqda ulardan so'raganda taqdim etadi.
3. Qo'mita ma'ruzalar mazmunini ifodalovchi dasturamal prinsiplarini belgilaydi.
4. Qo'mitaga dastavvalgi keng qamrovli ma'ruzani taqdim etgan ishtirok etuvchi davlatlarga navbatdagi ma'ruzalarida avval taqdim etgan axborotni takrorlashlarining zarurati yo'q. Ishtirok etuvchi davlatlarga Qo'mitaga ma'ruzani ochiq va oshkor jarayonga aylantirish hamda ushbu Konvensyaning 4-moddasi 3-bandida belgilab qo'yilgan qoidalarni zarur darajada hisobga olish to'g'risida o'ylab ko'rish taklif etiladi.
5. Ma'ruzalarda ushbu Konvensiya bo'yicha majburiyatlarni bajarish darajasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar va qiyinchiliklar ko'rsatilishi mumkin.

36-MODDA

Ma'ruzalarni ko'rib chiqish

1. Har bir ma'ruza u bo'yicha o'rini deb hisoblaydigan takliflar va umumi tavsiyalarni ko'ssatadigan Qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi hamda bu takliflar va umumi tavsiyalar tegishli ishtirok etuvchi davlatga yuboriladi. Ishtirok etuvchi davlat Qo'mitagaga javob tariqasida o'z tanlovi bo'yicha xohlagan axborotini yuborishi mumkin. Qo'mita ishtirok etuvchi davlatlardan ushbu Konvensiyani amalga oshirishga taalluqli bo'lgan qoshimcha axborot taqdim etilishini so'rashi mumkin.
2. Ishtirok etuvchi davlat ma'ruzani taqdim etishni jiddiy ravishda kechiktirayotgan bo'lsa, Qo'mita tegishli ishtirok etuvchi davlatga bildirgi yuborib, unda ushbu bildirigidan so'ng uch oy mobaynida tegishli ma'ruza taqdim etilmasa, mazkur ishtirok etuvchi davlatda ushbu Konvensiyani amalga oshirish to'g'risidagi masala Qo'mita ixtiyorida bo'lgan ishonarli axborot asosida ko'rib chiqishni talab etishini bildirishi mumkin. Qo'mita tegishli ishtirok etuvchi davlatga ana shunday ko'rib chiqishda ishtirok etishni taklif etadi. Agar ishtirok etuvchi davlat javob tariqasida tegishli ma'ruzani taqdim etsa, ushbu modda 1-bandida belgilangan qoidalar qo'llaniladi.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ma'ruzalarni barcha ishtirok etuvchi davlatlar ixtiyoriga taqdim etadi.
4. Ishtirok etuvchi davlatlar o'z ma'ruzalari mamlakatlarida jamoatchilik ular bilan keng tanishish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi hamda ushbu ma'ruzalarga taalluqli qoidalar va umumi tavsiyalar bilan tanishishni yengillashtiradi.
5. Qo'mita maqbul deb topgan holatlarda, u ishtirok etuvchi davlatlarning ma'ruzalarini Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasalari, fondlari va dasturlariga, shuningdek boshqa vakolatli organlarga ular ushbu ma'ruzalarda texnikaviy maslahatga yoki yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimoslariga yoxud bunday yordam ko'rsatish zarur degan ko'rsatmaga e'tibor qaratishlari uchun Qo'mitaning ushbu iltimoslar yoki ko'rsatmalar bo'yicha takliflari va tavsiyalari (agar ular mavjud bo'lsa) bilan birga yuboradi.

37-MODDA

Ishtirok etuvchi davlatlar va Qo'mita o'rtasidagi hamkorlik

1. Har bir ishtirok etuvchi davlat Qo'mita bilan hamkorlik qiladi va Qo'mita a'zolariga o'z mandatlarini bajarishda yordam ko'rsatadi.
2. Qo'mita ishtirok etuvchi davlatlar bilan o'z munosabatlarida ushbu Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha milliy imkoniyatlarni, shu jumladan xalqaro hamkorlik yordamida kuchaytirish yo'llari va vositalarini zarur tarzda hisobga oladi.

38-MODDA

Qo'mitaning boshqa organlar bilan munosabatlari

Ushbu Konvensiyani samarali amalga oshirish va Konvensiya tomonidan qamrab olinadigan sohalarda xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish uchun:

- a) Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasalari va boshqa organlari ushbu Konvensiyadagi o'z mandatlariga taalluqli bo'lgan qoidalarini amalga oshirish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilayotganda ularda ishtirok etish huquqiga ega. Qo'mita maqbul deb hisoblagan holatlarda, ixtisoslashtirilgan muassasalar va boshqa vakolatlarga tegishli mandatlarga taalluqli bo'lgan sohalarda Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha ekspert xulosasini berishi mumkin. Qo'mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasalari va boshqa organlariga ular faoliyatiga taalluqli sohalarda Konvensiyani amalga oshirish to'g'risidagi ma'ruzalarni taqdim etishini taklif qilishi mumkin;
- b) Qo'mita o'z mandatini amalga oshirishda, maqbul bo'lgan holatlarda, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarga ko'ra ta'sis etilgan boshqa tegishli organlar bilan ma'ruzalarni taqdim etishning tegishli dasturamal prinsiplarini, shuningdek ular tomonidan kiritilgan takliflar va umumiyl tavsiyalarni muvofiqlashtirishni ta'minlash hamda o'z funksiyalarini amalga oshirishda bir-birini qaytarish va parallelizmga yo'l qo'ymaslik masalasida maslahatlashadi.

39-MODDA

Qo'mita ma'ruzasi

Qo'mita ikki yilda bir marta Bosh Assambleya hamda Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga o'zining faoliyati to'g'risida ma'ruba taqdim etadi hamda ishtirok etuvchi davlatlardan olingan ma'ruzalar va axborotlarni ko'rib chiqishga asoslangan takliflar va umumiy tavsiyalarni chiqarishi mumkin. Bunday takliflar va umumiy tavsiyalar ishtirok etuvchi davlatlarning izohlari (agar ular mavjud bo'sa) bilan birga Qo'mitaning ma'rzasiga qo'shiladi.

40-MODDA

Ishtirok etuvchi davlatlarning Konferensiyasi

1. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu Konvensiyani amalga oshirishga taalluqli har qanday masalani ko'rib chiqish uchun muntazam ravishda ishtirok etuvchi davlatlarning Konferensiyasiga to'planadi.
2. Ushbu Konvensiya kuchga kirdigan so'ng olti oydan kechikmasdan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ishtirok etuvchi davlatlarning Konferensiyasini chaqiradi. Shundan keyingi yig'ilishlar Bosh kotib tomonidan ikki yilda bir marta yoki ishtirok etuvchi davlatlarning Konferensiyasi qarori bilan chaqiriladi.

41-MODDA

Depozitariy

Ushbu Konvensianing depozitariyi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Kotibi hisoblanadi.

42-MODDA

Imzolash

Ushbu Konvensiya barcha davlatlar va mintaqaviy integratsiya tashkilotlari tomonidan imzolash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagি Markaziyu muassasalarida 2007-yil 30-martdan ochiq.

43-MODDA

Majburiyatga rozilik

Ushbu Konvensiya uni imzolagan davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinadi hamda uni imzolagan mintaqaviy integratsiya tashkilotlari tomonidan rasman tasdiqlanishi kerak. U Ushbu Konvensiyani imzolamagan har qanday davlat yoki mintaqaviy integratsiya tashkilotlari uchun ochiq.

44-MODDA

Mintaqaviy integratsiya tashkilotlari

1. “Mintaqaviy integratsiya tashkiloti” muayyan mintaqaning suveren davlatlari tomonidan tashkil etilgan, unga a’zo davlatlar ushbu Konvensiya tartibga soladigan masalalar bo'yicha vakolat bergen tashkilotni anglatadi. Bunday tashkilotlar o'zlarining hujjatlarida ushbu Konvensiya tartibga soladigan masalalarga nisbatan o'z vakolatlari hajmini rasmiy tasdiqlashlarini yoki bunga qo'shilishlarini ko'rsatadi. Keyinchalik ular depozitariyni o'z vakolatlari hajmidagi har qanday jiddiy o'zgarishlar to'g'risida xabardor qiladi.
2. Ushbu Konvensiyadagi “ishtirok etuvchi davlatlar” qaydlari bunday tashkilotlarga ularning vakolati doirasida taalluqlidir.
3. Ushbu Konvensiyaning 45-moddasi 1-bandи hamda 47-moddasi 2- va 3-bandlari maqsadlari uchun mintaqaviy integratsiya tashkilotlari tomonidan saqlash uchun topshirgan birorta hujjat hisobga olinmaydi.
4. Mintaqaviy integratsiya tashkilotlari o'z vakolatlariga taalluqli masalalarda ishtirok etuvchi tashkilotlarning Konferensiyasida ushbu Konvensiya ishtirokchilari

bo'lgan ishtirok etuvchi davlatlarning soniga teng bo'lgan ovozlar soni bo'yicha ovoz berish yuzasidan o'z huquqini amalga oshirishlari mumkin. Bunday tashkilot agar unga a'zo bo'lgan qaysidir bir davlat o'z ovoz berish huquqini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'zining ovoz berish huquqini amalga oshirmaydi va aksincha.

45-MODDA

Kuchga kiritish

1. Ushbu Konvensiya saqlash uchun yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgandan keyingi o'ttizinchi kun kuchga kiradi.
2. Ushbu Konvensiya uni ratifikatsiya qilgan har bir davlat yoki mintaqaviy integratsiya tashkiloti uchun ular buni rasman tasdiqlaganliklari yoki unga qo'shilganliklari to'g'risida ana shunday yigirmanchi hujjatni saqlashga topshirganlardan keyingi o'ttizinchi kun kuchga kiradi.

46-MODDA

Izohlar

1. Ushbu Konvensiyaning obyekti va maqsadiga mos bo'limgan qo'shimchalarga yo'l qo'yilmaydi.
2. Qo'shimchalar xohlagan vaqtida olib tashlanishi mumkin.

47-MODDA

Tuzatishlar

1. Har qanday ishtirok etuvchi davlat ushbu Konvensiyaga tuzatish kiritishni taklif etishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. Bosh kotib taklif etilgan har qanday tuzatishni ishtirok etuvchi davlatlarga ma'lum qiladi hamda ulardan ushbu taklifni ko'rib chiqish va bu to'g'risida qaror qabul qilish uchun Konferensiya o'tkazish tarafidori ekanliklari to'g'risida xabardor qilishlarini so'raydi. Bu haqda ma'lum qilingan sanadan keyin to'rt oy mobaynida ishtirok etuvchi davlatlarning kamida uchdan bir qismi bunday Konferensiya

o'tkazishni yoqlab chiqsa, Bosh kotib Konferensiyanı Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidächaqiradi. Konferensiyyada hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etayotgan ishtirok etuvchi davlatlarning uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik tomonidan ma'qullangan har qanday tuzatish Bosh kotib tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga tasdiqlash uchun, so'ng barcha ishtirok etuvchi davlatlarga qabul qilish uchun yuboriladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq ma'qullangan va tasdiqlangan tuzatish uni qabul qilish to'g'risidagi saqlash uchun topshirilgan hujjalarning soni ishtirok etuvchi davlatlar uchdan ikki qismiga yetganidan keyin ushbu tuzatish ma'qullangan sanadan keyingi o'ttizinchikun kuchga kiradi. Shundan keyin tuzatish har bir ishtirok etuvchi davlat uchun u tomonidan tuzatishni qabul qilganligi to'g'risidagi hujjatini saqlashga topshirganidan keyingi o'ttizinchikun kuchga kiradi. Tuzatish faqat uni qabul qilgan ishtirok etuvchi davlatlar uchun majburiydir.

3. Agar ishtirok etuvchi davlatlarning Konferensiysi ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq ma'qullangan va tasdiqlangan kelishilgan tegishli qaror qabul qilsa, mutlaq 34-, 38-, 39- va 40-moddalarga taalluqli bo'lgan tuzatish barcha ishtirok etuvchi davlatlar uchun ushbu tuzatish ma'qullangandan keyin uning qabul qilinganligi to'g'risidagi hujjatlarni saqlashga topshirgan ishtirok etuvchi davlatlar sonining uchdan ikki qismiga yetganidan keyin kuchga kiradi.

48-MODDA

Denonsatsiya

Ishtirok etuvchi davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini yozma ravishda xabardor qilish orqali ushbu Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan ana shunday bildirgi olingen sanadan bir yil o'tgach kuchga kiradi.

49-MODDA

Foydalanish imkoniyati bo'lgan shakl

Ushbu Konvensiya matni foydalanish imkoniyati bo'lgan shaklda bo'lishi ta'minlanishi kerak.

50-MODDA

Autent matnlar

Ushbu Konvensiyaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari teng autentdir.

Ushbuni tasdiqlash maqsadida o'zlarining tegishli hukumatlari tomonidan zarur darajada vakolatga ega bo'lgan quyida imzo chekkan to'la vakolatli vakillar ushbu Konvensiyani imzoladi.



TRENERLAR VA O'QITUVCHILAR UCHUN
NOGIRONLAR HUQUQLARIGA OID
SEMINARLAR O'TKAZISH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA